

“МУТАФАККИРЛАР”
илемий-оммабоп рисолалар туркуми

Йўлдошхон ИСАЕВ

АБУ АЛИ ИБН СИНО

*Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими
вазирлиги ҳузуридаги Республика таълим
марказининг Тарих фани йўналиши бўйича илемий
методик Кенгаши нашрга тавсия этган*

«TAFAKKUR» наприёти
Тошкент — 2010

72.3(59)
И78

Исаев, Имадион

Абу Али Ибн Сино Й.С.ев; таҳрир ҳайъаты
Уалимов ба башк. -Т: «Тағылым», 2010 - 35 б.
(«Мұтағаккирлар» итчій-оммәләнештәре түркмек).

БВК № 38

Таҳрир ҳайъати:

УАЛИМОВ, УЗБАТОВ, АЖАСАНОВ, БТУРДЕЕВ
А АЧИЛДИЕВ, К НАЗАРОВ, О ЮСУПОВ, Н ЖАББОРОВ
А МУХТОРОВ, Ю МАХМУДОВ.

*Бұрыс, қада буюқ ватандаштыңиз, жаңон фанни тараққиеттеге
улкан қисса құшған үртә оснөлік буюқ қомусий оғын, мұтағаккир,
табиб, файласуғ, мантиқшынос, шоир Абу Али ал-Хусайн
ибн Абдуллах ибн ал-Хасан ибн Сино ұқыда мағлұмологияр тұжындан-*

*«Мұтағаккирлар» итчій-оммабол рисолалар түркүни Имом
Бухорий қалқаро мәрказы һәм «ТАҒАҚҚҰР» нағыз ғаланған
бүргалықтары лойиҳасидір.*

ISBN 978-9943-372-26-9

© «Имом Бухорий қалқаро мәрказы»
© «ТАҒАҚҚҰР» нағыз ғаланған, 2010.

Abu Ali ibn Sino

*Бизнинг тарихимизда жаҳонга донг тарат-
ган улуг мутафаккирлар ўтган экан, уларнинг
қолдирган илмий-маънавий мероси, ибратли
ҳаёти, таълимоти буғунги муаммоларни ечиш-
да бизга қўл келаётган экан, бу меросни ўрган-
масликка, таърифламасликка, таргигб этмас-
ликка ҳақимиз йўқ.*

Ислом КАРИМОВ

Абу Али ибн Сино

АБУ АЛИ ИБН СИНО (980-1037)

Исми-шарифи

Алломанинг тўлиқ исми Абу Али ал-Хусайн ибн Абдуллоҳ ибн ал-Ҳасан ибн Сино бўлиб, куняси Абу Алидир. Халқ орасида Ибн Сино Европада Авиценна, алломалар орасида эш Шайху-р-раис номлари билан машхур.

У зот ким эди?

Жаҳон фани тараққиётига улкан ҳисса қўшган, ўрта осиёлик буюк комусий олим, мутафаккир, табиб, файласуф, мантиқшунос, шоир.

Қаерда, қачон туғилган?

980 йил август ойида (370 ҳижрий йил сафар ойининг бошида)¹ Бухоро яқинидаги Афшона қишлоғида амалдор оиласида туғилган. Афшона бир вақтлар каттагина шаҳар

¹ Абу Али ибн Сино. “Тиб қонунлари” (Уч жилдлик сайдапма). 1-ж. Т.: “Абдулла Кодирийномидаги халқ мероси нашриети”, 1994. Б.З.

Abu Ali ibn Sino

бүлән. Вакт ўтиши билан у кичик бир қишлоқ бўлиб қолган ва Исфана қишлоғи деб атала бошлаган.

Қандай оиласда вояга етган?

Иби Синопинг отаси Абдуллоҳ Балх шахридан бўлиб, Сомонийлар амири Нуҳ ибн Мансур (967-997) даврида Бухоро томонга кўчиб келган ва Хурмайсан қишлоғига молия амалдори этиб тайинланган. Шундан сўнг у бу ерда доимий яшайди ва у ўз вазифасига кўра, Афшонага тез-тез бориб турган. Абдуллоҳ афшоналиқ Ситора исмли қизга уйланиб, икки ўғил фарзанд кўради. Ўғилларининг каттаси Ҳусайн (Иби Сино), кенжаси Маҳмуд эди. Ҳусайн 5 ёшга киргач, Иби Синолар оиласи пойтахт — Бухорога кўчиб келади. Иби Сино шу ерда ўқий бошлайди. 10 ёнга етганда Қуръони каримни ёд олиб, адаб дарсларини ҳам тўла ўзлаштириб олади. Айни вактда у ҳисоб ва алжабр билан ҳам шуғулланади, сўнгра араб адабиётига оид китобларни ҳам ўқиб чиқади. Унинг билимга бўлган зўр қобилияти ҳаммани ҳайратга солади.

Илк таҳсил олган устози

Иби Синонинг илм соҳасидаги дастлабки устози Абу Абдуллоҳ Нотилий бўлган. У Нотилий қўлида мантиқ, ҳандаса (геометрия)

Абу Али иби Сино

ва фалакиётни ўрганади ва баъзи фалсафий масалаларда устозидан ҳам ўзиб кетади. Устози унинг илмига юкори баҳо бериб, янада чукурроқ илм олишни тайинлайди.

Абу Али тинмай мутолаа килиб, турли илм соҳаларини ўзлаштиришига киришади. У мусика, оптика, кимё, фикх каби фанларни ўқийди, хусусан, табобатни севиб ўрганади ва бу илмда тез камол топа бошлайди.

Табобат илмидан таълим берган устози ва бу илмни қай даражада ўзлаштиргани

Ибн Синонинг тиб илмидаги юксак маҳоратга эришишида бухоролик табиб Абу Мансур ал-Хасан ибн Нух ал-Кумрийнинг хизмати катта бўлган. Ибн Сино ундан табобат дарсини олиб, бу илмнинг кўп сирларини ўрганади.

Абу Али ибн Сино айтинича, табобат илми унинг учун учалик қийни кўринмаган. У бу илмни осон ва тез ўзлаштириб олган. Бу соҳада Ибн Сино шу қадар юксак обрў қозонадики, ҳатто кўзга кўринган табиблар ҳам касалликни аниқламида қийналганиарида, Ибн Синодан маслаҳат сўрар эдилар.

Бу ҳақда алломанинг ўзи шундай ҳикоя қилади: “Кейинчалик тиб илми билан шуғуллангим келиб қолди. Уига онд китобларни ўқишига киришдим. Тиб ўзи кийин илмлардан эмас, шу

Abu Ali ibn Sino

сабабли қисқа муддат ичидә бу соҳада шундай натижаларга эриша олдимки, ҳатто фозил табиблар ҳам ҳузуримга келиб, мендан тиб илмини ўрганадиган бўлдилар”.

Иби Синонинг табиблик фаолияти

Абу Али ибн Сино факат тиббий китоблар ўқиш билангина чекланиб қолмай, беморларни ҳам даволар, уларнинг касалликларини синчилаб кўздан кечирар эди. Бунинг натижасида унинг билим ва тажрибаси янада ошиди. У касалларни даволашда ҳаммани лол қолдирар эди. Унга мурожаат киладиган касалларнинг сон-санофи бўлмай қолди. Бу хақда Иби Синонинг ўзи бундай ёзади: “Беморларни ҳам кўриб турардим. Эришган тажрибаларим туфайли мен учун даволаш йўллари шундай кенг очилдики, буни тарьифлаб берини қийин. Бу вақтда мен энди ўн олти ёшга тўлган эдим”. Демак, Абу Али ибн Сино ўн олти ёшидаёқ машҳур табиб бўлиб танилган. Бу албатта ўз-ўзидан бўлмаган, балки сабот-матонат билан ўқиш, кечалари уйқуни тарк этиши ва зўр тиришқоқлик натижасидир.

Илм ўрганишга бўлган шикоати

Хақиқатан ҳам Иби Сино жуда тиришқоқ, ўз олдига қўйган мақсадга эришмагунча тишимайдиган одам эди. Бу хақда унинг ўзи шун-

Абу Али ибн Сино

дай ёзади: “Үша кезлари бирон кеча түйиб ухламасдим, кундузлари хам илмдан бошқа нарса билан шуғулланмасдим. Ҳар бир масалани ўрганаётганимда бир қанча қиёсий далилларни солиштириб, шу далиллар нұктай назаридан үша дастлабки масала ҳақида холоса чиқарап әдим. Нихоят, бу масаланинг асл мөхияти менга аён бўлиб қоларди.

Ана шу зайлда хамма билимларни мустаҳкам эгаллаб олдим. Бир инсоннинг имконияти дара жасида уларни ўзлаштирдим”.

Абу Али ибн Синонинг тиришқоқлиги ва сабот-матонатли тигини яна қуйидаги мисол яққол кўрсатади. У бундай ёзади: “Мантиқ, табиат ва риёзиёт билимларини пухта ўрганиб олдим. Кейин илохиётни ўрганишга ўтиб, “Мо баяда ат-табиа”¹ китобини ўқидим. Бу китобни ўқидиму, лекин унда нималар дейилганини тушуна олмадим, китоб ёзган кишининг мақсади менга қоронғи әди. Хатто уни қирқ бир бор қайта ўқидим, китоб менга ёд бўлиб кетди. Лекин шунда хам мен китоб ва унинг мақсадини тўла тушуна олмадим. Нихоят умиидимни узуб, “Бу тушуниб бўлмайдиган бир китоб экан”, деган холосага келдим. Аммо кунлардан бир куни

¹ “Мо-баяда ат-табиа” Аристотелнинг “Метафизика”¹¹ номли асаридир.

аср вактида китобфурушларнинг олдига бориб қолдим. Бир китобфуруш муқоваланган китобни қўлида тутганича уни мақтарди. Менин ҳам чакириб, китобни кўрсатди... Лекин мен китобни сотиб олишни рад қилдим. Китобфуруш менга: “Бу китобни ол, шархи арzon, уч дирхамга сотаман, эгасп пулга мухтож”, — деди. Китобни ноилож сотиб олдим. Карасам, бу Абу Наср Форобийнинг ўша “Мобаъда ат-табиа” китоби хақида ёзган шархи экан. Уйга қайтиб, дарров уни ўкишга киришдим. “Мобаъда ат-табиа” дилимда ёд бўлиб қолгани сабабли тезда бу китобнинг мақсадини тушуниб олдим. Бундан ўзимда йўқ жуда хурсанд бўлиб кетдим”.

Илмий ижодининг бошланиси

Шундай қилиб Ибн Сино зарурый билимларнинг барчасини Бухорода олади. Ибн Сино жуда эрта ўзи ҳам асарлар ёзишга киришди. Алломанинг илмий ижоди 18 ёшдан бошланган. Аввало у бу ишини ўзига яқин бўлган кишиларнинг илтимоси билан бажаради. Ёш бўлишига қарамай Нух ибн Мансурга атаб нафсоний кувватлар хақида рисола, “Уржуза” тиббий шеърий асари ва ўз қўшниси ва дўсти Абулҳусайн ал-Арузийнинг илтимосига биноан, кўп фанларни ўз ичига олган “Ал-Хикмати-л-арузий” (“Арузий хикмати”) асарини тасниф этади.

Абу Али иби Сино

Ибн Сино Бухорода 20 жилдли комусий асари “Ал-Хосил ва-л-маҳсум” (“Якуи ва натижা”), 2 жилдли “Китобул-бир ва-л-исм” (“Саховат ва жиноят китоби”) асарларини ва ўзининг табобатга оид биринчи асари “Табобат луғати”ни ёзган. Алломанинг “Табобат луғати” асаридан кўп табиблар нусха олиб, кенг фойдаланганлар.

Ибн Синонинг табобатда килган ишлари унинг номини бир неча асрларга шу фан соҳаси билан чамбарчас боғлади.

Алломанинг табобат тараққиётидаги буюк хизмати шундаки, у ўзигача ўтган турли ҳалқ намояндадар томонидан асрлар давомида, тиб илми соҳасида тўпланаған маълумотларини саралаб, муайян бир тартибга солди ва уларни ўз тажрибалари билан бойитган ҳолда маълум назария ва қонун-коида асосида умумлаштирди. Унинг “Тиб қонунлари” асари ва бу асарнинг жаҳон тиб илми тарихида тутгап ўрни жуда юкоридир. Ибн Сино антик олимларнинг, хусусан Гиппократ, Гален, Диоскоридларнинг таълимитларини ўрганган ва уларнинг фикрларига таянган. У тиб назариясини, хусусан анатомия – инсон гавдаси тўзилишини мукаммал билган. Ибн Сино ўткир диагност эди. Унинг баъзи ташхис усуслари ҳозир ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Abu Ali ibn Sino

Ғабобат тарихида биринчи бўлиб вабо билан Ҳатни фарқлаган, юқумли касалликлар билан оғриган беморларни бошқалардан ажратган холда сақлашни таъкидлаган.

Беморларни даволашда олим З нарсага: тартиб (пархез), дорилар билан даволаш ва турли тиббий тадбирларни қўллаш(қон олиш, банка қўйиш, зулук қўйиш, ҳуқна ва бошқалар)га аҳамият бериш кераклигини айтади.

Ибн Сино касалликни даволашда шахсий гигиена, уйқу ва жисмоний машқларнинг аҳамияти катталигини уқтирган.

Ибн Сино доришунослик соҳасида ҳам чукур тадқиқотлар олиб борган. У антик олимларнинг формацияси асосида мусулмон шарқида пайдо бўлган янги формациянинг шаклланишига якун ясади. Унинг доривор ўсимликларни йиғини, сақлаш, қайта ишлаш усуслари ҳозирда ҳам қўлланилади. Иби Сино биринчилардан бўлиб кимёвий усулда тайёрланган дориларни ҳам ишлатган. Касалликнинг турига қараб аввал содда, сўнг мураккаб таркибли дори билан даволаган. Энг муҳими, озиқ-овқатларнинг шифобахш таъсирига катта аҳамият бериб, даволашни шундай маҳсулотлар(мева, сабзавот, сут, гўшт ва бошқалар)дан бошлаган. Дори тайинлашда беморнинг мижози, ёши, иқлим шароитини ҳисобга олиш зарурлигини таъкидлаган.

Абу Али иби Сино

Қаңдай давр ва мухитда яшаган? Бухородаги ҳаёти

Абу Али иби Сино 17 ёшида Бухоро халки орасида жуда тажрибали ва мохир табиб сифатида танилади. Бу хабар подио саройига ҳам етиб келади. Щу вактда Бухоро ҳокими Нух ибн Мансур бетоб эди. Уни даволаш учун Ибн Синонин ҳам саройга чакирадилар. Ибн Сино амирни даволашда иштирок этиб, ўзининг ўткир билими билан касалликни аниқлашга ёрдам беради. Бу билан у амирнинг ишончига сазовор бўлади ва саройга яқин кишилар каторига киради. Бунинг натижасида Ибн Синонинг обрўси ҳам ошиб кетади. Саройда нодир китобларга бой катта кутубхона бортигини Ибн Сино биларди. Ибн Сино амирни даволайди, эвазига сарой кутубхонасидан фойдаланишга изн сўрайди ва бу имкониятга эга бўлади. Сомонийлар кутубхонаси ўша даврда бутун Ўрта ва Яқин Шарқдаги энг катта ва бой кутубхоналардан бўлган. Ибн Сино бир неча йил давомида шу кутубхонада кечаю қундуз китобларни мутолаа қилиши билан машғул бўлиб, кутубхонадаги тибга оид китобларни қунит билан ўқиб чиқади. Бошкка файлар соҳасидаги китоблар билан ҳам танишади. Шундай килиб, Ибн Сино ўз даврининг энг ўқимишти, билим доираси кенг кишиларидан биринга айланади.

Abu Ali ibn Sino

Бухоро кутубхонаси ҳақида Ибн Сино шундай ёзали: “Мен кўп хоналардан иборат кутубхонага кирдим. Хар бир хонада китоблар солинган сандиклар турарди, улардаги китоблар эса, устма-уст тахлаб қўйилган эди... Хар бир хонада фанинг маълум соҳасига оид китоблар сақланар эди. У ерда шундай китобларни кўрдимки, кўпчилик ҳатто уларнинг номларини ҳам эшитмаган бўлса керак. Ўзим ҳам бундан олдин уларни кўрмаган эдим, кейин ҳам учратмадим”.

Ибн Сино кутубхонадан чиқмасди. Амирнинг касаллиги хуруж қилиб, у Ибн Синони чакиртиргандагина, китоб ўқишидан бироз вақтга бош кўтарарди.

Шундай қилиб, бу ердаги нодир китобларни қунт билан ўқиш натижасида Ибн Синонинг билими янада кенгайди ва чукурлашди. Олимнинг ёзишича, 18 ёнга етганда у табобат илми билан бир қаторда ўз замоиласида маълум бўлган барча бошқа фанларни ҳам мукаммал ўзлаштириб олган эди.

Бухоро ҳокими саройидаги фаолияти

997 йили Бухоро ҳокими Нух ибн Мансур вафот этади. Тахтга унинг ўғли Мансур II ибн Нух ўтиради. У Ибн Сино билан дўст эди. Манбаларда келтирилишича, у Ибн Синони сарой-

Абу Али иби Сино

даги вазифалардан бирига тайинлаган. Шундай қилиб, Ибн Сино сарой табиби вазифасидан ташкари, у ерда давлат хизматчиси вазифасипи ҳам бажарган. Лекин кўп ўтмай Мансур II ибн Нух ўлдирилиб, унинг ўрнини укаси Абдулмалик иби Нух эгаллади. У олим билан унчалик яқин муносабатда бўлмайди. Шунинг учун Ибн Сино сарой хизматидан кетиб, ўз илмий-ижодий ишлари билан машгул бўлади.

Абу Али ибн Синонинг Бухородаги тинч, ижодий ҳаёти узоқ давом этмайди. Корахонийлар 999 йили Бухорони забт этиб, сомонийлар давлатини ағдарганидан кейин Ибн Сино ҳаётида ташвишли, нотинч ва оғир дамлар бошлапди. Аллома 21 ёшга етганда, 1002 йили унинг отаси вафот этади. Бунинг натижасида Ибн Сино моддий жиҳатдан аянчли ахволга тушиб қолади. Чунки унга моддий ва маънавий жиҳатдан ёрдам берадиган бошқа яқин кишиси йўқ эди. Бунинг устига мамлакатда катта сиёсий ўзгаришлар юз бериб, Ибн Синонинг тинч ижодий ҳаёти учун шароит йўқолади.

Хоразмдаги Маъмун академиясидаги фаолияти

Бухорода вазият кескинлашиб, таҳт учун кураш 1005 йилгача давом этади. Ибн Сино 1002 йили ўз юртини тарқ этиб, Хоразм давлатининг

Abu Ali ibn Sino

пойтахти Урганч шаҳрига келади. Бу даврда Хоразм корахонийлар хужумидан бирмунча тинч бўлиб, иқтисодий ва маданий жиҳатдан ағча ривожланган ўлка эди. Хоразм шоҳлари Али ибн Маъмун (997-1007) ва Маъмун ибн Маъмун (1007-1017) илм-фанга эътиборли ҳукмдорлар бўлиб, олимларга илмий ижод учун қулай шароит яратиб берган эдилар. Шу боис Хоразмнинг пойтахти Гурганж(Урганч)да ўз замонасиининг кўпгина таниқли олимлари тўпланди. Йириқ математик ва астроном Абу Наср ибн Ирок (1034 йили вафот этган), атокли табиб ва файласуфлар Абу Сахл Масиҳий (1010 йили вафот этган), Абулхайр Ҳаммор (942-1030) ва буюк олим Абу Райхон Беруний шулар жумласидандир.

Хоразмда Ибн Синони яхши кутиб олишади. У саройда хизмат қилувчи олимлар қаторига киритилади ва “Академия”га қабул қилинади. Ибн Синога бошқа олимлар қатори катта маош тайинланади. У ўз таржиман ҳолида Хоразмда жуда яхши қабул қилинган лигини эслаб, бундай деб ёзган эди: “Зарурат юзасидан Бухорони тарқ этиб, Гурганж томонга кўчинишмга тўғри келди. У ерда илмиш севувчи Абул-Хусайн ас-Сахлий вазир эди. У ернинг амири ҳузурига бордим. Унинг исми Али ибн Маъмун эди. Мен у пайтда сўфийлар ридосини кийиб олган эдим. Менга етарлп микдорда ойлик тайин қилишди”.

Абу Али ибн Сино

Абу Али ибн Сино Хоразмга келганида у с尔да Абу Райхон Беруний йўқ эди. Бу вактда Беруний бир сабаб билан Хоразмдан кетиб қолган ва Эроннинг Рай шахрида яшаётган эди.

Али ибн Маъмуннинг ўзи чукур илмли, одил шоҳ эди. У илм аҳлини жуда қадрларди. Шуннинг учун у Берунийга катта хурмат билдириб, унга хат ёзади ва Берунийни ўз саройига таклиф этади. Шу хатга асосан Беруний 1005 йилда яна Хоразмга қайтади ва подиоҳ саройига хизматга киради. Али ибн Маъмун ўз саройидаги олимларга бошлик килиб Берунийни тайинлайди. Шу сабаб билан Беруний “Академия”га раҳбар бўлиб қолади.

Шундай қилиб, Ибн Сино билан Беруний бир-бирлари билан 1005 йили Гурганжда учрашадилар. Улар бундан илгари бир-бирлари билан фақат хат орқали танингган эдилар. Али ибн Маъмун саройида Ибн Синодан ташқари табиблардан яна Абул Хайр Ҳаммор ва Абу Саҳл Масихийлар ҳам яшардилар. Ибн Сино кўпинча Абу Саҳл Масихий билан ишлар эди. Баъзи маълумотларга кўра, улар биргаликда бир неча мураккаб жарроҳлик амалиётларини амалга оширгаллар.

Ибн Сино Хоразмда асосан математика ва астрономия билан шуғулланган. Бу соҳада Ибн Ирок ва Беруний билан бўлган илмий мулокотлар катта аҳамият касб этади. Ибн Сино Абу

Abu Ali ibn Sino

Саҳл Масихийнинг тиббий тажрибаси ва би-тимларидан хам катта сабоқ олади.

Абу Али иби Сино Хоразмда 9-10 йилча яшади. Сўнг кўшини давлат ҳукмдори Султон Маҳмуд Хоразмни босиб олини хавфи бўлганлигидан унга хизмат қилишни истамай бу ердан хам кетинига мажбур бўлди.

Хоразмни тарқ этиб, Журжонга йўл олиши

Иби Сино 1010-1011 йилларда Масихий билан биргаликда яширинча Хоразмни тарқ этади. Шу вактдан олимнинг саргардонлик йиллари бошланиб, умрииниг охиригача ватандан узокда хаёт кечиришига мажбур бўлади.

Масихий билан Иби Сино Журжонга — Масихийнинг ватанинига йўл оладилар. Лекин йўлдаги қийинчиликлар ва сувсизлик туфайли Масихий бетоб бўлиб, вафот этади. Натижада Иби Сино азоб-уқубатлар чекиб, аввал Нисо, сўнг Обивард, Тус, Шиққон ва Хурносоннинг бошқа шаҳарларида қисқа муддаг турганидан кейин, ниҳоят Каспий дengизининг жануби-шарқида жойлашига Журжон амирлигига етиб келади. Иби Сино Журжонда 1012-1014 йилларда яшайди. Бу ерда у ўзининг бўлғуси шогирди Абу Убайд Жузжоний билан танишади. Иби Сино умрининг охиригача Жузжоний билан

921992

Абу Али иби Сино

содик дўст бўлиб қолади. Абу Убайд Жузжоний Ибн Сино билан унинг сўнгти нафасигача, 25 йил давомида бирга бўлади. Иби Синопининг таржимаи ҳолининг ёзилиб қолиши, кўпгина асарларининг ёзилиши ва тартибга тушишида ҳамда асарларининг кейинги авлодга етиб келишида Жузжонийнинг хизмати катта.

Журжонда яшаган вактида Ибн Сино илмий ижод билан шуғултанади, ҳам табиб сифатида фаолият кўрсатади. Бу ерда у шогирдининг илтимосига кўра, мантиқ, фалсафа ва бошиқа фанларга оид бир неча рисола ёзади ва энг муҳими, “Тиб қонунлари”нинг дастлабки қисмларини тасниф килади. Тарихий маълумотларга кўра, Ибн Сино Журжонда қўйидаги асарларини ёзган: “Ўртacha қиска мантиқ”, “Тиб қонунлари”нинг айрим боблари, “Алмажастийнинг қисқартирмаси” ва бир қанча кичик рисолалар шулар жумласидаидир. Аллома ҳаммаси бўлиб Журжонда 21 йирик ва 2 кичик китоб ёзиб тутатган.

Журжонни тарқ этиб, Райга қўчиши

1014 йили Ибн Сино Журжонни тарқ этиб, Райга қўчди. У Райга келган вактда бу ерда бувайхийлардан бўлмиш Маждуддавла Абу Толиб Рустам (997-1029) ва унинг онаси Саййида

Abu Ali ibn Sino

Хотун ҳукмронлик қиласар әдилар. Ибн Синонинг қўлида Саййида номига ёзилган нома (мактуб) бор эди. Номани Абу Райхон Беруний ёзиб берган бўлиши керак. Маълумки, Беруний бир вақтлар Райдада яшаган эди. Бинобарин, Райдада яшаган эди. Бинобарин, Райдада яшаган эди. Шунинг учун Беруний бу аёлга хат ёзишга журъат этган. Хатда Ибн Синога етарли даражада шаронит яратиб берини илтимос килинганди.

Саййида Ибн Синони хурмат билан кутиб олди ва унинг учун зарур шаронит яратиб берди. Саййицданинг ўғли Маждууддавла қандайдир руҳий касалликка дучор бўлгани эди. Ибн Сино уни мувваффақиятли даволтайди. Бундан кўп хурсанд бўлган Саййида Ибн Синога нисбатан яна ҳам хурмат билан карай бошлайди. Ибн Сино Райдада ҳам ўз ижодий ишларини давом эттириб, бир неча асар ёзди.

Аммо Султон Махмуд Ибн Синони таъкиб этишини тўхтатмайди. Ибн Синонинг Райдалигини билди, Саййицданинг Фазнага юборишини талаб қиласди. Акс ҳолда Райдада яшаган эди. Аммо зўр асл-идрокли ва тадбиркор Саййида урушнинг олдини олади.

Ривоятларга кўра, Саййида Султон Махмудга қўйидаги мазмунда хат ёзган: “Агар уруш натижасида сиз мени енгсангиз, одамлар Султон

Абу Али ибн Сино

Маҳмуд факат бир ожиза аётигина енгди, дейдилар холос. Агар мен енгсам, сиз учун жуда катта номус бўлади". Тарихчилар бу хатининг матниши Ибн Сино ёзган, дейдилар. Шундай қилиб Султони Маҳмуд Райга ҳарбий юришни тұхтатади. Лекин Ибн Сино Райдан чиқиб кетишга мажбур бўлади.

Райни тарк этиб, Ҳамадонга келиши

Ибн Сино Райни тарк этиб, нисбатан кучлирек бўлган Ҳамадонга Маждууддавланинг акаси Шамсуддавла (997-1021) ҳузурига келади. У ерда Шамсуддавлани саичик касалидан даволаганидан кейин олимни саройга таклиф қиласидилар. У аввал сарой табиби бўлиб ишлайди, сўнг вазирлик мансабига кўтарилади. Давлат ишлари билан банд бўлишига қарамай илмий ишларни ҳам давом эттиради ва қатор асарлар ёзади. У "Тиб қонунлари"нинг 1-китобини шу ерда тутатган. Бундан ташқари, машҳур фалсафий қомусий асари "Китоб аш-шифо"ни ҳам шу ерда ёзинга киришилади. Ҳамадонда Ибн Сино ўз шогирди Жузжоний билан биргаликда бир беморни операция қилиб, унинг қовуғидан тошини олиб ташлайди.

Шамсуддавла вафот этгандан сўнг тахтга ўтирган унинг ўғли Самоуддавла Ибн Синога

үнчалик хурмат билан қарамайды. Шу сабабли у саройдан кетади. Жузжонийнинг ёзишича, олим Абу Голиб ал-Аттор исмли кишининг уйига кўчиб бориб, ўша жойда яшай бошлайди. Бу ерда Ибн Сино ўз илмий-ижодий ишларига яна берилб кетади. Хусусан “Китоб аш-шифо” асарининг “Табиат” ва “Илохиёт” ҳақидаги бобларини ёзиб тугатиб, “Мантиқ” кисмини ёзишга киришади. Аллома “Тиб қонунлари” асарининг қолган кисмини ҳам Ҳамадонда ёзиб битиради.

Аммо Ибн Сино учун Ҳамадонда хавфли вазият вужудга келади. У вазирлигига амалга оширган тадбирларидан норози бўлган сарой амалдорлари Ибн Синодан ўч олиш учун унга нисбатан душманлик кила бошлайдилар. Бундай шароитдан қутулиш мақсадида Ибн Сино қўшни Исфаҳон вилояти амири Алоуддавлага хат ёзиб, ундан ўзини саройга қабул қилишини сўрайди. Бироқ хат қандайдир йўл билан Самоуддавланинг вазирларидан бири Тожи-л-мулк қўлига тушади. У хатни Самоуддавлага етказади. Ибн Синони тутиб олиб, Фаражон қатъасига қамаб қўядилар.

Ибн Сино қамоқда тўрт ой чамаси ётади. Аммо у тушкунликка тушмайди. У камоқда ҳам ўз ижодий фаолиятини давом эттиради. Абу Убайд Жузжонийнинг ёзишича, Ибн Сино бу ерда тибга оид ўзининг машхур “Ички санчиқ-

Абу Али иби Сино

лар” номли асарини ёзган. Бундан ташқари, у шу ерда иккита фалсафий асар “Тирик ўғли Ўйғок” ва “Тұғри йүл ҳақида” китобларини ёзди.

Шу вактда Исфаҳон амири Алоуддавла Ҳамадонни босиб олиб, бир қанча вакт уни ишғол қилиб туради. Бунинг натижасыда Иби Сино қамоқдан қутулади.

Ҳамадондан Исфаҳонга үтиши

Иби Сино қамоқдан чиқкан бўлса-да, баригириб унинг Ҳамадонда яшаши хавфли эди. Шу сабабли, у яширинча Исфаҳонга жўнайди. Исфаҳон амири Алоуддавла Иби Синони яхши қабул қиласи ва аллома учун бу ерда жуда яхши шароит яратиб беради.

Иби Сино умрининг қолган 14 йилини Исфаҳонда үтказади. Бу ерда ҳам у тинимсиз илмий иш билан манифур бўлиб, бир қанча асарлар яратади. Улар орасида тиб, фалсафа, аниқ фанлар, тилшунослик каби фанларга оид китоблар бор. “Китоб аш-шифо”нинг айрим қисмлари, форс тилидаги “Донишнома” ва 20 жилдли “Инсоф-адолат китоби” шулар жумласидандир.

Иби Сино Исфаҳондалигига шахарга Фазна ҳукмдори Султон Масъуд (Султон Махмуддинг ўғли)нинг аскарлари бостириб кириб, аҳолини талон-тарож қиласидилар. Бу тўполоңда Иби Синонинг кўп асарлари ва қўллөзмалари йўқ бўлиб

кетади. Ибн Сино йўқолган асарларини яна сўдан тиклайди.

Иби Синонинг вафоти

Жуэжонийнинг ёзишича, Ибн Сино, гарчи, жисмонан жуда бақувват бўлса-да, бироқ шаҳарма-шаҳар дарбадарликда юриш, кеча-кундуз тиним билмай ишилаш ва бир неча бор таъкиб қилиниб, хатто хибсда ётишлар олимнинг саломатлигига жиддий таъсир этди. У қуланж (колит) касаллигига чалинади. Алоуддавланинг Ҳамадонга юриши вактида Ибн Сино қаттик бетоблигига қарамай, у билан бирга сафарга чиқади. Йўлда дарди қўзғаб олимнинг тамомида мадори қурийди ва оқибатда у шу дардан 1037 йили Ҳамадонда 57 (хижрий 58) ёшида вафот этади. Аллома Ҳамадонда дафи этилади. Унинг қабри устига 1952 йили мақбара қурилган (мемори X. Сайхун). Мақбара Ибн Синога бағишланган музей хоналарини хам ўз ичига олган¹

Буюк ватандошимиз Абу Али ибн Сино ўзининг қиска умри давомида жаҳон фани ва маданиятида ўчмас из қолдирди.

¹ “Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси”, Т.1: “Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси” Давлат илмий пашрияти. 2002. 4-том. Б. 54.

Абу Али ибн Сино

Алломанинг илмий мероси

Жаҳон фанни тарихида Ибн Сино қомусий олим сифатида таан олинган, чунки у ўз давридаги мавжуд фанларнинг қарийб барчаси билан шуғулланган ва уларга онд асарлар ёзган. Аллома асарларини ўша даврда Яқин ва Ўрта Шарқнинг илмий тили бўлган араб тилида, баъзиларини форс тилида ёзган. Турли манбаларда унинг 450 дан ортиқ асар ёзганлиги қайд этилган бўлса ҳам, замонлар ўтиши билан уларнинг кўпич йўқолиб кетган ва бизгача уларнинг 242 таси етиб келган¹, шулардан 80 таси фалсафа, илоҳиёт ва тасаввуфга тегишли, 43 таси табобатга онд, 19 таси мантиққа, 26 таси руҳшуносликка, 23 таси тиббиёт илмига, 7 таси фалакиётга, 1 таси риёзиётга, 1 таси мусиқага, 2 таси кимёга, 9 таси одоб илмига, 4 таси адабиётга ва 8 таси боинқа олимлар билан бўлган илмий ёзишмаларга бағищланган.² Алломанинг асарлари кейинги авлодларга бой мерос бўлиб қолди.

Ибн Синонинг илмий меросини шартли рашида 4 қисмга, яъни фалсафий, табиий, адабий ва тиббий соҳаларга бўлиши мумкин. У фал-

¹ Яхъе Махдиявий. "Фижрист-и нусхаҳ-ийи Ибн Сино. Техрон, 1333х. 1954м." Абу Али ибн Сино. "Тиб конунлари". (Уч жилдлик саиттанма). 1-ж. Т.: "Абдулла Кодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти". 1994. Б.5.

² Абу Али ибн Сино. "Тиб конунлари". 1-ж. Т.: "Абдулла Кодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти". 1994. Б.5.

сафа ва тиббиётга қўпроқ қизиққан. Маълумки, Ибн Сино ҳам бопка мутафаккирлар каби ўзининг таълим-тарбияга оид қараашларини ижтимоий-фалсафий қараашлари билан боғлиқ ҳолда ифодалаган, маҳсус рисолаларда талқин этган. Шунингдек, фанларни тасниф этади. Бунда у биринчи ўринга тиббиёт фанларини қўяди. Фалсафани эса икки гурухга, яъни назарий ва амалий гурухларга бўлади. Назарий гурух кишиларни ўзидан тапкаридағи борлиқ ҳолати ҳақидағи билимларни эгаллашга йўлласа, амалий қисм бизга бу дунёда шималар қилишимиз кераклигини ўргатади, дейди.

У биринчи гурухга этика, иқтисод, сиёсатни киритади. Иккинчи гурухга физика, математика, метафизика, дунё қонуниятларини ўрганувчи барча фанларни киритади.

Тиббиётта оид асарлари

Ибн Синонинг тиббиёт фанига оид умумий назарий ва амалий масалаларига бағишлиланган энг йирик асари “Тиб қонунлари” бўлиб, у 5 катта китобдан иборат бўлиб (1956-62 йилларда Тошкентда рус ва ўзбек тилларида тўла нашр этилган), уларнинг ҳар бири маълум соҳани изчил ва ҳар томонлама ёритиб беради.

1-китобда тиббиётнинг назарий асослари, унинг предмети ва вазифалари, касалликнинг

Абу Али иби Сино

келиб чиқиши сабаблари, белгилари ва соғликии сақлаш йўллари, кишии анатомияси ҳақида мазмундор аниқ очерк ва соғлиқини қаңдай сақлаш кераклиги ҳақидаги таълимоти баён этилади. Турли юқумли касалликларнинг келиб чиқиши ҳамда тарқалишида ифлосланган сув ва ҳавонинг роли катта эканини уқтириб, сувни қайнатиб ёки фильтрлаб истеъмол қилишни тавсия этади.

2-китобида 800га яқин дорининг хусусиятлари, уларни тайёрлаш ва истеъмол қилиш усуслари баён этилган. Ибн Сино симоб ва унинг бирикмаларини дори қилиб ишлатишни биринчи бўлиб тавсия этади, шаробни кувват киритувчи ва жароҳатларни тозаловчи дори сифатида ишлатади.

3-китобида айрим органларнинг (хатто соч, тирнокъларнинг) касалликлари ва уларни даволаш усуслари баён этилди. Бу китобда бош мия, асаб, қўз, қулок, бурун, томоқ, қорин, тиш, юрак, меъда, жигар, буйрак касалликлари батарфсил таҳлил қилинади.

4-китоби организмнинг умумий касалликларига бағицланган, унда иситмалар, ўсмалар, уларнинг сабаби, жарроҳлик йўли билан даволанадиган касалликлар ва уларни даволаш усуслари, хар хил дорилардан заҳарланиш ва бунда кўриладиган чораҳтар тўғрисида маълумот берилади.

5-китобида мураккаб дориларнинг организмига таъсири, уларни тайёрлаш ва истеммол қилиш усуллари баён қилишган. Бу китоб доришунослик илмига – фармакологияга бағишиланган.

Ибн Синонинг тиббиётга оид муҳим асарларидан иккинчisi назм (шеърий усул) билан ёзилган “Тиббий уржуза”¹ китобидир. Бу китоб 1326 байт(2652 мисра)дан иборат катта шеърий асардир. Китоб тиб илмини ўрганувчи талабаларга дарслик сифатида ёзилган.

Бу асар асосан тиббиётнинг назарий масалаларига бағишиланган. Лекин унда амалий тиббиёт ҳақида ҳам етарли маълумот берилган. “Тиббий уржуза” ўз мазмуни ва ахамияти жиҳатидан “Қонун”дан унча қолишмайди. “Қонун”да баён этилган мавзуу ва масалалар “Уржуза”да қисқа ва ихчам қилиб келтирилган.

“Тиббий уржуза” икки бўлимдан иборат.

Биринчи бўлимда тиббиётнинг умумий назарий масалалари ёритилган. Унда, хусусан, тиббиётнинг тафсири, унинг қисмлари, унсурлар, аъзолар, мижозлар, хилтлар, рух (жон), қувватлар ҳақида маълумотлар берилади. Сўнг иinson организмiga ҳаво, овқатлар, ичимликлар, уйку ва уйқусизлик, харакат ва ҳаракатсизлик,

¹ Уржуза – шеърда аруз вазниининг бир тури.

Абу Али иби Сино

нафсоний кайфиятларниң таъсири күрсатилған. Шундан кейин айрим аъзолар касалліккә, уларниң белгилари, томир уришини текшириш ва шунга асосан касаллікни аниклаш усуллари баён этилған. Булардан ташқары пешоб, ахлат, балғам, тери ва терин текшириб, касаллікка да-лил топиш усуллари көлтирилған. Қон, сафро, савдо ва хилтнинг ғалаба қилиши(устун келиши)даги белгилар күрсатилған.

Иккинчи бўлим тиббиёт амалиётига бағишлан-ған. Бу бўлим ўз навбатида тўрт қисмга бўлинган.

Биринчи қисмда киши соғлиғини сақлаш тад-бири баён этилған.

Иккинчи қисмда беморларга бериладиган дори ва овқатлар ҳақида сўз юритилади.

Учинчи қисмда кўл билан амалта оширилади-ған муолажа усуллари (жарроҳлик) баён этилған.

Тўртинчи қисмда чикқан-синганларни даво-лаш күрсатилған. Масалан, чикқан бўғинларини (суюкни) жойига солиши.

Алломанинг “Тиббий уржуза” асари 1972 йилда ўзбек тилига хам таржима қилиниб, бо-сиб чиқарилған.

Иби Синоининг бу асосий “Тиббий уржуза” китобидан ташқары, тиббиётга оид яна бир неча шеърий “Уржуза” китоблари бўлған. Улар тиб-биётининг айрим маҳсус масалаларига бағишли-ған бўлиб, бизга қуйидагилари маълум:

1. “Тана тузилишига оид уржуза” китоби. Бу китоб 98 байтдан иборат бўлиб, унчалик катта эмас.

2. “Жинсий майллик ҳақида уржуза”.

3. “Соғлиқни сақлаш ҳақида тиббий уржуза”. Бу 15 байт(30 мисра)дан иборат кичик шеърий асардир.

4. “Йилнииг тўрт фасли ҳақида тиббий уржуза”. Бу китоб ҳам унчалик катта эмас. Ҳаммаси бўлиб 121 байт(242 мисра)дан иборат.

5. “Синааб кўрилган дори-дармонлар ҳақида тиббий уржуза”. Бу асарда Ибн Сино ўзи узок вақт касалтарда синааб кўрган ҳар хил дори-дармонлар ҳақида сўз юритган.

6. “Гиппократининг васиятлари ҳақида уржуза”. Бу асар 93 байтдан иборат.

7. “Тиббий насиҳатлар ҳақида уржуза”. Бу асар 72 байтдан иборат.

Иби Синонинг тибга оид муҳим асарларидан яна бири “Тиббий қондаларда учрайдиган хатоларни тузатиш” китобидир. Бу китоб “Тадбирда йўл қўйилган ҳар хил хатоликларга қарши чора кўриши йўли билан танага етказилган турли зарарларни йўқотиш”, деб ҳам аталади.

Иби Сино таъкидлаб ўтганидек, тиббиётнинг асосий вазифаси касалтикнииг олдини олиш, яъни унинг ривожланишига йўл қўймаслиқдир. Бу масалага аллома ўзининг бир неча асарини

Абу Али иби Сино

багишлаган. Шулардан бири “Саломатликни сақлаш ҳақида рисола”дир. Бу китобча 13 бобдан иборат. Асарда сўз асосан шахсий гигиена ҳақида боради.

Ибн Синонинг бошқа асарлари тиббиётнинг айрим хусусий масалаларига багишланган катта-кичик китоблардан иборатdir. Улар орасида 1-2 саҳифалилари ҳам бор.

Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” ва “Уржузा фи-т-тиб” (“Тиббий уржузা”) каби тиббий асари билан бир қаторда тиббиётнинг айрим назарий ва амалий масалаларига багишланган турли ҳажмдаги “Ал-Адвияти-л-қалбия” (“Юрак дорилари”), “Китоб ал-кулоғж” (“Куланж ҳақидаги китоб”), “Мақола фи-н-набз” (“Томир уриши ҳақида макола”), “Рисола фи-л-боҳ” (“Шахвоний қувват ҳақида рисола”), “Рисола фи-л-фасд” (“Қон олиш ҳақида рисола”) каби рисолалари ҳам бор.

Фалсафий асари. Олимнинг фалсафага оид энг йирик ва муҳим асари “Китоб аш-шифо”-дир. У 4 қисмдан иборат:

1. Мантиқ – 9 бўлакка бўлинган:

1. “Ал-мадҳал” (“Мантиққа кириш”).
2. “Ал-мақулот” (“Категориялар”).
3. “Ал-иборат” (“Интерпретация”).
4. “Ал-қиёс” (“Силлогизм”).

Abu Ali ibn Sino

5. “Ал-бурхон” (“Исбот”, “Далил”).
6. “Ал-жадал” (“Тортинув”, “Диалектика”).
7. “Ас-сафсата” (“Софистика”).
8. “Ал-хитоба” (“Риторика”).
9. “Аш-шэйр” (“Поэтика”), (Шеър санъати).

2. Тиббиёт:

(Бу ерда минераллар, ўсимликлар, ҳайвонот олами ва инсонлар ҳақида алоҳида алоҳида бўлимларда гапирилади).

3. Риёзиёт – 4 фанга бўлинган:

1. “Ҳисоб” (“Арифметика”).
2. “Ҳандаса” (“Геометрия”).
3. “Астрономия” (Фалакиёт).
4. “Мусика”.

4. Метафизика ёки илоҳиёт.

Бу асарларининг айрим қисмлари лотин, сурʼений, иброний, немис, инглиз, француз, рус, форс ва ўзбек тилларида нашр қилинган.

Абу Али ибн Синонинг булардан ташқари турли соҳага оид “Ал-Қонун”, “Ҳайй ибн Яқзон”, “Рисолат ат-тайр”, “Рисолат фи-л-ишқ” (“Ишқ ҳақида рисола”), “Рисолат фи моҳияти-с-салот” (“Намозлииг моҳияти ҳақида рисола”), “Китоб фи маъно зиёрат” (“Зиёрат килишининг

Абу Али ибн Сино

маъноси хақида”), “Рисолат фи даф ал-ғам мина-л-мавт” (“Ўлимдан келадиган ғамни даф қилиш хақида рисола”), “Рисолат ал-қадр”, “Ан-Нажот”, “Аш-Шифо”, “Донишнома”, “Китоб ал-ишорат” ва “Ат-танbihot” каби кўплаб асарлари ҳам бор.

Алломанинг “Хайй ибн Яқзон” асари кишиларнинг дид-фаросатини ўстириши, фикр доирасини кенгайтириши билан таълим-тарбияда катта аҳамиятга эга. Унинг номи ҳам шунга ишора қиласди: “Хайй ибн Яқзон” (“Тирик ўғли Уйғок”). Бу асар фаросат илми хақида эканлигини Ибн Синонинг ўзи ҳам таъкидлайди. Юқорида айтганимиздек, мазкур асарни Ибн Сино 1023 йилда Ҳамадонга яқин бўлган Фаражон калъаси қамоқхонасида ёзган.

Иби Сино ахлоққа оид асарларини “Амалий ҳикмат” (“Донишмандлик амалиёти”) деб атайди. Олимнинг фикрича, ахлоқ фани кишиларнинг ўзига ва бошқаларга нисбатан хатти-харатаки меъёрлари ва қоидаларини ўрганади.

Ибн Сино ахлоқлиликнинг асосини яхшилик ва ёмоилик каби икки тушунча билан таърифлайди: “Дунёда мавжуд бўлган жами нарсалар табиатига кўра камолот сари интилади. Камолот сари иштилишнинг ўзи эса моҳият эътибори билан яхшиликдир...”.

Abu Ali ibn Sino

Ибн Синонинг “Тадбири манзил” рисоласи ҳам “Китоб аш-шифо” асарининг таркибий қисмидан ташкил этади. Асар араб тилидан форсийга эронлик олим Мұхаммад Нажмий Запжоний томонидан таржима қилиниб, 1939 йили Техронда чоп этилган. У таржима асар икки қисмидан иборат бўлиб, иккинчи қисми таржимоннинг изоҳлари ва батафсил шарҳларидан ташкил топган.

Ибн Сино ўз давридаги табиий фанларнинг ривожига ҳам улкан ҳисса қўшган олимдир. Унинг табиий-пілмий қарашлари “Китоб аш-шифо”нинг табиий фанларга оид қисмида баёп қилинган. Алломанинг баъзи геология жараёнларига онд мулоҳазалари ҳозирги илмий назарияларга жуда яқинидир. У вулқонлар ва зилзилалар натижасида тоғларнинг иайдо бўлиши ҳақидаги ўз фикрларини айтади.

Ибн Сино минералогия (маъданшунослик) соҳасида ҳам салмоқли ишлар қилган. У минералларнинг оригинал класификациясини таклиф этди. Унга кўра барча маъданлар 4 гурухга: тошлар, эридиган жисемлар (металлар), олтингугуртли ёнувчи бирикмалар ва тузларга бўлинади.

Ибн Сино табиий фанлар қатори кимё, табиатшунослик, фалакиёт пілми, математика, шеъ-

Абу Али иби Сино

рият ва мусика бобида ҳам илмий йӯналишларини давом эттирган ва уларга оид асарлар ҳам ёзган.

Буюк қомусий олим Ибн Сино мусика бобида Форобийнинг илмий йӯналишини давом эттиргаи йирик назариётчидир. Унинг мусика ҳақидағи “Жавомеъ илм-у-л-мусликий” (“Мусика илмиға оид түйлам”) асари б бобдан иборат бўлиб, бунда товушнинг сезги аъзоларига таъсири, унинг ёқимли ва ёқимсизлиги, товушни эшиштганда лаззатланиш ё нафратланиш ҳисснинг пайдо бўлиши каби масалаларга тўхталади. Ибн Сино мусика овозларининг киши руҳига таъсири ҳақида ҳам ўз фикрларини ва ўз даври мусиқасининг барча муаммоларини баён этган.

Ибн Синонинг тиббий фикрлари

Абу Али иби Сино ўз давридаги файларнинг ҳаммасини мукаммал ўзлаштириб, табиийки, тиббиёт фанига алоҳида аҳамият берган ва ўз қасбини асосан табиблиқ деб билган. Айнан шу табиблиқ соҳасида унинг таланти ва кобилияти, айниқса, яккол намоёп бўлди.

Ибн Сино фикрича, тиб илмида назарий билимлар ва амалиёт ўзаро боғлиқ бўлиши ва бир-бирига асосланмоғи зарур, акс ҳолда у ривож топмайди ва ўз мақсадига эриша олмайди.

Тиб илми аввало икки қисмга – назарий ва амалий қисмларга бүлинади.

Иби Сино табобат илмининг назарияси ва амалиёти соҳасида жуда чукур билимга эга эди. Ўзининг ниҳоятда ўткир зехни ва чукур билими туфайли Иби Сино табобат илми соҳасида ўз давридан анча илгарила бекетди. У табобатнинг максад ва вазифасини бошқалардан кўра чукурроқ ва кенгрок тушунарди. Чунончи, Иби Сино ўша замондаёқ тиббиётнинг асосий вазифаси кишиларнинг саломатлигини сақлашга қаратилган тадбирларни амалга оширишдан иборатdir, деб билган. Бу фикр ҳозирги замон тиббиётнинг асосий тушунчасига тамомила мос келади.

Абу Али ибн Сино табиб сифатида улуғ гуманист эди. У инсон манфаатини доимо ҳамма нарсадан юқори қўяр ва ўз шюғирдларидан ҳам шуни талаб қиласади. Бу унинг тиббиётга берган таърифидан маълум. Иби Сино ўзининг тиббиётга оид машҳур назмий асари “Тиббий Уржуз”да бундай дейди: “Табобат – бу саломатликни саклаш ва касалликларни даволашдан иборат”. Бу фикр олимпининг шоҳ асари “Китобу-л-конун фит-тиб”да айниқса яққол ўз ифодасини тоиган.

Иби Сино ўзининг бу шоҳ асарини шундай сўзлар билан бошлайди: “Тиб шундай илмки, у

Абу Али иби Сино

кишиларнинг саломатлигини сақлаш ва касалликларни даволаш мақсадида одам танасини соғва касаллик чөғида ўрганади”.

Бундан қўриниб турибдики, Ибн Сино киши саломатлигини, яъни профилактикани биринчи ўринга қўйга. Олимпийг ўз фаолияти умр бўйи шу максадга хизмат қилишга бағишланган эдн. Унинг бутун хаёти тиббиётнинг шу асосий вазифаси билан чамбарчас боғлиқ бўлган.

“Конун”да тиббиёт фанининг вазифасига бағишланган маҳсус қисм бор. Ибн Сино ёзади: “Ҳар бир ҳодисанинг моҳияти унинг сабабини аниклаш йўли билан очилади. Шунинг учун соғлик, касаллик ва уларнинг сабабларини билиш керак. Соғлик, касаллик ва уларнинг сабаблари гоҳо очик (аниқ), гоҳо эса ёпик (ноаниқ) бўлиши мумкин. Бу сабаблар ўз қўринишларига қараб фақат ўқини билангина эмас, балки фикр қилини йўли билан тушунилади. Шунингдек, табобатда соғ вактда ҳам, касалликда ҳам содир бўладиган ҳодисаларни билиш керак”. Бундан келиб чиқадики, табиб ўз фаолиятида, дастлаб соғликни йўқотинига олиб келган сабабни аниқлаб олини зарур. Ибн Сино соғлик тўғрисида бундай дейди: “Соғлик шундай холатки, бунда органлар ўз вазифасини тўла бажарини қобилиятига эга бўлади”. Алломанийг буцдан минг йил муқаддам айтган бу фикрлари юксак даражада ривожланган

Abu Ali ibn Sino

хозирги замон тиббиёти ва унинг профилактик принципларига тамомила мос келади.

Ибн Сино амалий табобатин иккига бўлади. Булардан бири, соғлом тана режими, яъни саломатликни сақлашга қаратилган тадбирлар бўлса, иккичиси посоғ (касал) тана режими дир. Бунда организмни нормал холатга қайта-риш кўзда тутилади. Буни аллома «даволаш билими» деб атайди.

Ибн Сино таълимотининг давомчилари

Ибн Сино ўзининг бой ва серқирра илмий мероси билан кейинги давр Шарқ ва Фарб маданиятиниң ривожига катта таъсир кўрсатди. Шарқнинг Умар Ҳайём, Абу Убайд Жуэжоний, Насриддин Тусий, Фаридуддин Аттор, Низомий Ганжавий, Жалолиддин Румий, Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Улуғбек, Бедил каби мутафаккир ва олимлари ўз асарларида Ибн Сино таълимоти ва илмий фояларини давом эттирадилар.

Европанинг машҳур файласуф ва табиатшунос олимларидан Жордано Бруно, Гундисвалво, Вильгельм Овериский, Александр Гельский, Альберт фон Больштедт, Фома Аквинский, Рожер Бэкон, Данте ва бошқалар Ибн Синонинг илфор фикрларидан ўз ижодларида фойдаландилар ва унинг номини зўр ҳурмат билан тилга олдилар.

Абу Али иби Сино

Айни вақтда ҳам Ибн Сино асарлари дунёнинг турли кутубхоналарида, файласуфлар, шифокорлар, математик ва тилшуносларниң китоб жавонларида авайлаб сақланмоқда.

Бутун илғор инсоният, хусусан ўзбек халки, илм-маданият аҳли акл ва адолат таитапаси учун курашган, фан, ҳақиқат йўлида бутун хаётини илм-фанга, маданият ва маърифатга бағишилаган ажойиб истеъдод эгаси Ибн Сино билан гуурланади.

Ибн Синога берилган тавсиф

У ўз илми, мероси билан ўрта аср Шарқининг илмий маданий қудратини бутун дунёга намоён қылган. Бутун инсоният маданиятиниң ривожига улкан хисса қўшган.

Шунинг учун ҳам Ибн Сино жаҳон маданиятиниң буюк сиймоси, энг катта файласуф, табиатшунос, илсоншунос, машхур энциклопедист сифатида тан олинди.

Ибн Синонинг жаҳон фани ва маданияти ривожига қўшган хиссасини эътиборга олиб, Жордано Бруно Ибн Синони кадимги Юнонистошининг буюк файласуфи Аристотель, табиб (врач) Голенлар билан тенг қаторга қўйса, А. Данте ўзининг «Илоҳий комедия»сида олимни Птоломей, Эвклид, Гиппократларга тенглаштиради. Немис файласуфи Л. Фейербах олимни

Abu Ali ibn Sino

“Машхур табиб ва файласуф” деса, Ҳиндистоннинг буюк давлат арбоби Ж. Неру ўзининг “Ҳиндистоннинг очилиши” деган асарида Ўрта Осиё олимларини тилга олар экан, Ибн Сино номини алоҳида таъкидлаб: “Улардан энг машҳури табиблар (врачлар) подшоҳи деган номни олган бухоролик Ибн Сино (Авиценна)дир”, — деб, хурмат билан тилга олади.

Демак, Ибн Синонинг шахсий фаолияти, дунёвий илмларни ўрганиши ҳақидаги таълимотлари, таълим-тарбия ҳақидаги мулоҳазалари ва табобат тараққиётидаги буюк хизматлари дунё тараққиётida ўзига хос ўринни эгаллайди.

Замондошлари Ибн Синони “Шайх ур-раис” (“Донишманлар сардори, алломалар бошлиғи”); “Шараф ал-мулк” (“Ўлка, мамлакатнинг обруси, шарафи”), “Хужжат ал-ҳаққ” (“Ростликка далил”); “Ҳаким ал-вазир” (“Донишман, тадбиркор вазир”) деб атагаплар.

Ибн Синонинг болалигидаги бир воқеа

Узук воқеаси: Абу Али ибн Синонинг онаси уни чақалоклигида чўмилтираётганида қимматбаҳо узутини йўқотиб қўйган экан. У узутини кўп қидирибди. Лекин ҳеч қаердан топа олмабди. Кейин уни канизак олган, деб гумон қилиб, бечора канизакни роса қалтаклашибди. Канизакни уришаётганида Абу Али йиғлай бошлабди, қалтаклашдан тўхташса, ча-

Абу Али иби Сино

қалоқ хам йиғидан тұхтабди. Хамма бундан ажабланиб, узукни йүқөттігә чиқарыпшыбы.

Иби Сино тиітін кирганида, бириңчи айтған гапи шу бұлыбы: Сизтар үша вактда канизакни нохақ урган әдинглар. Онам мениң чүмілтираёттанды, узуги тоғорага тушиб кетгап әди. У тоғорани ағдарганида узук хам сув билан биргә кир үрага тушиб кетган. Мениң тилим чиқмаганидан, сизтарға айтолмаган әдим. Канизакни урганингларда йиғелаб, тұхтатғанларингда йиғидан тұхташимнинг сабаби шу әди.

Шуидан кейин үрани кавташған экан, узук топылды. Бу воксаны әшитғанлар Ибн Сино зеҳніга қойил қолышған экан.

Беморларни даволашдаги құллаган усуллари ҳақиқады ривоятлар

“Мен хұқизман”: Бухоролик бир кипи қасал бұлыб, “Мен хұқизман, мениң сүйинінглар”, дейдиган бұлыб қолибы.

Беморнинг қариндош-уругелари буни Абу Али иби Синога айтишибди. Абу Али қасалнинг олдига қассоб бұлыб келибди ва “Қапи сүядиган хұқизниңлар!” — деб бақирибди. Бемор ушиннеге олдига чопиб бориб, “Сүйиладиган хұқиз менман”, дебди. Абу Али дарров bemorning құлөөниши боғлатибы, сүіг құліда пічоқии үйнастыб, bemorning биқинидан ушлаб күрибди-да:

Abu Ali ibn Sino

— Хўқизимиз семиз демабмидиларинг, бу жуда ориқ-ку, буни мен ҳозир сўймайман, сал семирсиз, кейин сўяман, — дебди. Бемор бу гапни эшитиб: “Кани, менга овқат беринглар, мен семирай”, деб овқат талаб қиласериди.

Абу Али иби Сино bemорнииг оиласига дори қолдириб, уни овқатига қўшиб, bemорга беришини уқтирибди. Уйдагилар шундай қилишибди. Натижада bemор хадемай тузалиб кетибди. Кейинчалик Абу Али иби Сино bemорнииг уйига келиб:

— Семирган хўқизинглар кани, сўйиб берай, — дебди ва соғайган bemорга қўзи тушиб:

— Э, анча семирибсан-ку, энди сўйса бўлади, — дебди.

Бемор табибининг гапидан жуда таажжубланиди ва:

— Мени сўядиганнииг боини ўнта, тегиб кўрчи, менга, — дея дўқ урибди.

Йиғилган қариндош-уругларнииг ҳаммаси аввалги воқсани эслаб, хохолаб кулиб юборишибди.

Ишқ дардига чалинган қизни даволаши

Ривоят қилиниларича, бир шоҳнинг қизи бетоб бўлиб қолади. Табиблар уни даволай олмадилар, шунда Ибн Синога мурожаат кил-

Абу Али иби Сино

дилар. Иби Сино уни кўриб: “Унинг дарди – ишқдир”, – деди. Сарой канизаклари уни никор киладилар. Иби Сино: “Агар хоҳласатарингиз, мен сизларга унинг кимни севишини хам айтиб бераман. Бу кизга якин бўлган йигитларниг номларини айтинглар, мен унинг томирини ушлаб турман”, – деди. Саройдагилар бирма-бир атрофдаги йигитларниг номини айта бошладилар. Севгилисинг исмини зикр қилинганда томирлари қаттиқ ура бошлади ва хушидан кетди. Иби Сино унинг дардини шу тариқа аниқлади. Сарой аъёнлари унинг дардининг давоси нима эканлиги хақида сўрадилар. Иби Сино: “Ишқ унинг бутун вужудини эгаллаб олибди, агар шу йигитга уни турмушга бермасаларингиз, у ҳалок бўлади”, – деди.

Иби Сино шу тариқа ўзининг донолиги ва зийраклиги билан бемориниг дардии тўғри аниқлаб, уни даволаган экан.

Иби Сино: “Менинг бисотимда (аниқ ташхис қўйиш учун) бор нарсаларниг энг азизроғи – бу бемориниг тўғри сўзиидир”, дейди.

Абу Али ибн Сино ҳаётининг солномаси

980 — Бухоро яқинидаги Афшона деган жойда Абу Али Хусайн ибн Абдуллох дунёга келди.

985 — Уларниң оиласи Афшонадан Бухорога күчип ўтди.

985-995 — Хусайн ибн Абдуллох Бухородаги Махмуд Массоҳ, Исмоил аз-Зоҳидий, Абу Абдуллоҳ Нотилий, Ал-Кумрий каби улуг олимтардан таълим олади.

997 — Абу Али Хусайн ибн Абдуллох Бухорининг улуғ олим ва табибларида бири бўлиб танилди. Бухоро амиригининг оғир касалини даволашда иштирок этиб, унинг эвазига амир кутубхонасида мутолаа этмоққа руҳсат олади.

998 — Ўзининг дастлабки илмий асарлари ишларни яратди.

999 — Корахонийлар Бухорони забт этиб, сомонийлар давлатини ағдарганидан кейин Ибн Сино ҳаётида ташвишли, нотинч ва оғир дамлар бошланди.

1002 — Абу Али ибн Сино 21 ёшга етганда унинг отаси вафот этди.

1005 — Абу Али ибн Сино Бухородан Хоразм пойтахти Гурганжга келиб бу ердаги олимлар даврасида хизмат қиласи. Асалар ёзади.

Абу Али иби Сино

“Тиб қонунлари”, “Анг-шифо” асарларининг да-стлабки материалларини ҳам шунда йиға бошлади. Ибн Сино шу йили Абу Райхон ал-Беруний билан учрашади.

1012-1014 — Абу Али иби Сино Газна подшохи Султони Газнавий таъқибидан қочиб Абу Сахл Масихий билан бирга Хоразмдан чиқиб кетди. Улар Эрон сары жұнадилар. Йүлда Масихий вафот этди. Абу Али иби Сино Нисо, Обивард, Шикқон, Саманқон, Жожурлы деган жойтарда тентираб юрди. Сүнг Журжонга келди. Уидан Дехистонга үтди. Сүнг яна Журжонга қайтди. Бу ерда унга Абу Убайд ал-Жузжоний келиб учради. Шундан сүнг устоз Абу Али иби Сино ва шогирд Абу Убайд Жузжоний ҳамиша бирга бўлдилар.

1014 — Абу Али иби Сино Рай шахрига келади. Бу ерда табиблик билан шуғулланади, илмий ишларини давом эттиради.

1016 — Султон Махмуд Газнавийнинг таъқибидан қочиб Абу Али Ибн Сино Райдан Козвин орқали Ҳамадонга үтади. Бу ерда амир Шамсуддавланинг вазири бўлиб хизмат килади. Сүнг ҳарбийларининг иғвоси билан Фаражон қатъасига хибс этилади. Бу ерда Абу Али иби Сино “Алхидоя” (“Бағишлов”), “Ҳайй иби Яқзон” (“Үйғокининг ўели Тирик”), қулаиж ка-

Abu Ali ibn Sino

сали түғрисидаги “Китобу-л-Куланж” асарларини ёзди. “Юрак дорилари” китобини ёза бошлади.

1025 — Абу Али ибн Сино Ҳамадондан Исфаҳонга ўтди. Бу ерда умрининг охиригача яшади. “Тиб қопчилари”, “Аш-шифо” каби шоҳ асарларини тугаллади. “Китоб ул-Алойи” асарини ёзди.

1037 — Абу Али Исфаҳон амири Алоуддавла билан Ҳамадон сафарнда бирга бўлди. Шу сафар давомида эски касали қўзғаб қолди ва 1037 йили Ҳамадонда 57 (хижрий 58) ёшида вафот этади. Абу Али ибн Сино Ҳамадон шаҳрининг фарб томонида кўрғон деворининг ёнига дағн этилади.

1952 — Аллома қабри устига мақбара курилган (меъмори X. Сайхун). Мақбара Ибн Синога бағисланган музей хоналарини ҳам ўз ичига олгаи.

Абу Али ибн Сино

Адабиётлар:

1. Иби Синонинг нашр этилган асарлари

1. *Иби Сино*, "Дониш-намаэ, Книга знания", Душанбе, 1957.
2. *Ибн Сино*, "Тиб қонунлари", 1-5-китоблар; (2-нашири), Т.: 1979-1983.
3. *Иби Сино*, "Избранные философские произведения", М.: 1980.
4. *Иби Сино*. "Осори мунтахаба", 1-2 т., Душанбе, 1980.
5. *Ибн Сино*, "Саломон ва Ибсол", Т.: 1980.
6. *Ибн Сино*, "Трактат по гигиене", Т.: 1982.
7. *Ибн Сино*. "Тиббий рисолалар", Т.: 1987.
8. *Ибн Сино*, "Тиб қонунлари", (З жилди сайланма; Тузувчилар: У.Каримов, Х.Хикматуллаев), Т.: 1994.
9. *Иби Сино*, "Канон врачебной науки, в 10 томах. Т.: 1996.
10. *Ибн Сино*. "Уржуза ёки 1326 байт тиббий ўгит, Т.: 1999.
11. Абу Али ибн Сино, "Зафарнома", Таржимон: Носир Мухаммад, Т.: "Пиҳол". 2009.

2. Ибн Сино ҳақидаги асарлар

1. Джумаев В.К. "Ибн Сино портрети", Т.:1957.
2. Джумаев В.К., "Хирургия Абу Али ибн Сины и её исторические источники", Т.: 1965.
3. Терновский В.Н., "Ибн Сина (Авиценна)", М.:1969.
4. Хайруллаев М., "Уйғониш даври ва Шарқ мұтафаккири", Т., 1980.
5. Завадоский Ю.Н., "Абу Али ибн Сина", Душанбе, 1980.
6. Болтаев М.Н., "Абу Али ибн Сина великий мыслитель, учёный-энциклопедист средневекового Востока", Т.: 1980.
7. "Абу Али ибн Сино түгилған кунининг 1000 иштегига, тұплам, Т., 1980.
8. Отабеков Ю.О., Ҳамидуллин Ш.Х., "Абу Али ибн Синонинг илмий асосланған ҳайкал образини яратиш", Т.: 1980. Сагадеев А. В., "Ибн Сина (Авиценна)", М., 1980.
9. Нуралиев Ю., "Медицина эпохи Авиценны", Душанбе, 1981.
10. Мажидов Н. М., Ҳалимов Х. М., Мажидова Ѓ. Н., "Абу Али иби Сино неврологиясы", Т.: 2002.
11. "Буюк алломаларимиз", "Тошкент ислом университети", Т.: 2002.

Абу Али ибн Синя

*Bizning tariximizda jahonga dong
taratgan ulug' mutafakkirlar o'tgan ekan,
ularning qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosi,
ibratli hayoti, ta'limoti bugungi muammolarni
yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bu
merosni o'rganmaslikka, ta'riflamaslikka,
targ'ib etmaslikka haqimiz yo'q.*

Islom KARIMOV

Abu Ali ibn Sino

“MUTAKKIRLAR”
ilmiy-omimbabop risolalar turkumi

ABU ALI IBN SINO

ABU ALI IBN SINO (980-1037)

Ismi-sharifi

Allomaning to'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Sino bo'lib, kunyasi Abu Alidir. Xalq orasida Ibn Sino, Yevropada Avitsenna, allomalar orasida esa Shayxu-r-rais nomlari bilan mashhur.

U zot kim edi?

Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, o'rta osiyolik buyuk qomusiy olim, mutafakkir, tabib, faylasuf, mantiqshunos, shoir.

Qayerda, qachon tug'ilgan?

980-yil avgust oyida (370-hijriy yil safar oyining boshida)¹ Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida amaldor oilasida tug'ilgan. Afshona bir vaqtlar kattagina shahar bo'lgan. Vaqt o'tishi

¹ Abu Ali ibn Sino. "Tib qonunlari". (Uch jildlik saylanma) 1-j. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 1994. B.3.

Abu Ali ibn Sino

bilan u kichik bir qishloq bo'lib qolgan va Isfana qishlog'i deb atala boshlagan.

Qanday oilada voyaga yetgan?

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967-997) davrida Buxoro tomonga ko'chib kelgan va Xurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlangan. Shundan so'ng u bu yerda doimiy yashaydi va u o'z vazifasiga ko'ra, Afshonaga tez-tez borib turgan. Abdulloh afshonalik Sitora ismli qizga uylanib, ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'llarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjası Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirdi, Ibn Sinolar oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi. Ibn Sino shu yerda o'qiy boshlaydi. 10 yoshga yetganda Qur'oni karimni yod olib, adab darslarini ham to'la o'zlashtirib oladi. Ayni vaqtida u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, so'ngra arab adabiyotiga oid kitoblarni ham o'qib chiqadi. Uning bilimga bo'lган zo'r qobiliyati hammani hayratga soladi.

Ilk tahsil olgan ustozи

Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozи Abu Abdulloh Notiliy bo'lган. U Notiliy qo'lida

mantiq, handasa (geometria) va falakiyotni o'rganadi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketadi. Ustozi uning ilmiga yuqori baho berib, yanada chuqurroq ilm olishni tayinlaydi.

Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishadi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'qiydi, xususan, tabobatni sevib o'rganadi va bu ilmda tez kamol topa boshlaydi.

Tabobat ilmidan ta'lim bergen ustozи va bu ilmni qay darajada o'zlashtirgani

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo'lgan. Ibn Sino undan tabobat darsini olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rganadi.

Abu Ali ibn Sino aytishicha, tabobat ilmi uning uchun unchalik qiyin ko'rinnagan. U bu ilmni oson va tez o'zlashtirib olgan. Bu sohada Ibn Sino shu qadar yuksak obro' qozonadiki, hatto ko'zga ko'ringan tabiblar ham kasallikni aniqlashda qiynalganlarida, Ibn Sinodan maslahat so'rар edilar.

Bu haqida allomaning o'zi shunday hikoya qiladi: "Keyinchalik tib ilmi bilan shug'ullangim kelib qoldi. Unga oid kitoblarni o'qishga kirishdim.

Abu Ali ibn Sino

Tib o'zi qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa muddat ichida bu sohada shunday natijalarga erisha oldimki, hatto fozil tabiblar ham huzurimga kelib, mendan tib ilmini o'rganadigan bo'ldilar”.

Ibn Sinoning tabiblik faoliyati

Abu Ali ibn Sino faqat tibbiy kitoblar o'qish bilangina cheklanib qolmay, bemorlarni ham davolar, ularning kasalliklarini sinchiklab ko'zdan kechirar edi. Buning natijasida uning bilim va tajribasi yanada oshib ketdi. U kasallarni davolashda hammani lol qoldirar edi. Unga mu rojaat qiladigan kasallarning son-sanog'i bo'lmay qoldi. Bu haqida Ibn Sinoning o'zi bunday yozadi: “Bemorlarni ham ko'rib turardim. Erishgan tajribalarim tufayli men uchun davolash yo'llari shunday keng ochildiki, buni ta'riflab berish qiyin. Bu vaqtda men endi o'n olti yoshga to'lgan edim”. Demak, Abu Ali ibn Sino o'n olti yoshidayoq mashhur tabib bo'lib tanilgan. Bu albatta o'z-o'zidan bo'limgan, balki sabot-matonat bilan o'qish, kechalari uyquni tark etish va zo'r tirishqoqlik natijasidir.

Ilm o'rganishga bo'lgan shijoati

Haqiqatan ham Ibn Sino juda tirishqoq, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishmaguncha

tinchimaydigan odam edi. Bu haqida uning o'zi shunday yozadi: "O'sha kezlar biron kecha to'yib uxlamasdim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdim. Har bir masalani o'rganayotganimda bir qancha qiyosiy dalillarni solishtirib, shu dalillar nuqtai nazaridan o'sha dastlabki masala haqida xulosa chiqarar edim Nihoyat, bu masalaning asl mohiyati menga ayon bo'lib qolardi.

Ana shu zaylda hamma bilimlarni mustahkam egallab oldim. Bir insонning imkoniyati darajasida ularni o'zlashtirdim"

Abu Ali ibn Sinoning tirishqoqligi va sabotmatonatliligin yana quyidagi misol yaqqol ko'rsatadi. U bunday yozadi: "Mantiq, tabiat va riyoziyot bilimlarini puxta o'rganib oldim. Keyin ilohiyotni o'rganishga o'tib, "Moba'da at-tabia"¹ kitobini o'qidim. Bu kitobni o'qidimu, lekin unda nimalar deyilganini tushuna olmadim, kitob yozgan kishining maqsadi menga qorong'i edi. Hatto uni qirq bir bor qayta o'qidim, kitob menga yod bo'lib ketdi. Lekin shunda ham men kitob va uning maqsadini to'la tushuna olmadim Nihoyat umidimni uzub, "Bu tushunib bo'lmaydigan bi-

¹ "Moba'da at-tabia" Aristotelning "Metafizika" nomli asaridir.

kitob ekan”, degan xulosaga keldim. Ammo kunilardan bir kuni asr vaqtida kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Bir kitobfurush muqovalangan kitobni qo'lida tutganicha uni maqtardi. U meni ham chaqirib, kitobni ko'rsatdi. Lekin men kitobni sotib olishni rad qildim. Kitobfurush menga: “Bu kitobni ol, narxi arzon, uch dirhaunga sotaman, egasi pulga muhtoj”, dedi. Kitobni noiloj sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning o'sha “Moba'da at-tabia” kitobi haqida yozgan sharhi ekan. Uyga qaytib, darrov uni o'qishga kirishdim. “Moba'da at-tabia” dilimda yod bo'lib qolgani sababli tezda bu kitobning maqsadini tushunib oldim. Bundan o'zimda yo'q juda xus sand bo'libketdim”.

Ilmiy ijodining boshlanishi

Shunday qilib Ibn Sino zaruriv bilimlarning barchasini Buxoroda oladi. Ibn Sino juda erta o'zi ham asarlar yozishga kirishdi. Allomaning ilmiy ijodi 18 yoshdan boshtanadi. Avvalo u bu ishni o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning iltimosi bilan bajaradi. Yosh bo'lishiga qaramay Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, “Urjuza” tibbiy she'riy asari va o'z qo'shnisi va do'sti Abulhusayn al-Aruziyning iltimosiga binoan,

Абу Али ибн Сино

ко‘п fanlarni o‘z ichiga olgan “Al-Hikmati-l-aruziy” (“Aruziy hikmati”) asarini tasnif etadi.

Ibn Sino Buxoroda 20 jildli qomusiy asari “Al-Hosil va-l-mahsum” (“Yakun va natija”), 2 jildli “Kitobul-bir va-l-ism” (“Saxovat va jinoyat kitobi”) asarlarini va o‘zining tabobatga oid birinchi asari “Tabobat lug‘ati”ni yozgan. Allomaning “Tabobat lug‘ati” asaridan ko‘p tabiblar nusxa olib, keng foydalanganlar.

Ibn Sinoning tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog‘ladi.

Allomaning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o‘zigacha o‘tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida, tib ilmi sohasida to‘plangan ma’lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o‘z tajribalari bilan boyitgan holda ma’lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Uning “Tib qonunlari” asari va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan o‘rni juda yuqoridir. Ibn Sino antik olimlarning, xususan Gi ppokrat, Galen, Dioskoridlarning ta’limotlarini o‘rgangan va ularning fikrlariga tayangan. U tib nazariyasini, xususan anatomiya — inson gavdasi tuzilishini mukammal bilgan. Ibn Sino o‘tkir diagnost edi. Uning ba’zi tashxis usullari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Abu Ali ibn Sino

Tabobat tarixida birinchi bo'lib vabo bilan o'taqni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlashni ta'kidlagan.

Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga: tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash(qon olish, banka qo'yish, zuluk qo'yish, huqna va boshqalar)ga ahamiyat berish kerakligini aytadi.

Ibn Sino kasallikni davolashda shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida ham chuqu'r tadqiqotlar olib borgan. U antik olimlarning formatsiyasi asosida musulmon Sharqida paydo bo'lgan yangi formatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirda ham qo'llaniladi. Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimi, oziq-ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlar(ineva, sabzavot, sut, go'sht va boshqalar)dan boshlagan. Dori tayinlashda

Абу Али ибн Сино

bemorning mijozi, yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan.

Qanday davr va muhitda yashagan? Buxorodagi hayoti

Abu Ali ibn Sino 17 yoshida Buxoro xalqi orasida juda tajribali va mohir tabib sifatida taniladi. Bu xabar podsho saroyiga ham yetib keladi. Shu vaqtda Buxoro hokimi Nuh ibn Mansur betob edi. Uni davolash uchun Ibn Sinoni ham saroyga chaqiradilar. Ibn Sino amirni davolashda ishtirok etib, o'zining o'tkir bilimi bilan kasallikni aniqlashga yordam beradi. Bu bilan u amirning ishonchiga sazovor bo'ladi va saroyga yaqin kishilar qatoriga kiradi. Buning natijasida Ibn Sinoning obro'si ham oshib ketadi. Saroya nodir kitoblarga boy katta kutubxona borligini Ibn Sino bilardi. Ibn Sino amirni davolaydi, evaziga saroy kutubxonasidan foydalanishga izn so'raydi va bu imkoniyatga ega bo'ladi. Somoniylar kutubxonasi o'sha davrda butun O'rta va yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan bo'lgan. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kechayu kunduz kitoblarni mutolaa qilish bilan mashg'ul bo'lib, kutubxonadagi tibga oid kitoblarni qunt bilan o'qib chiqadi. Boshqa fanlar sohasidagi

kitoblar bilan ham tanishadi. Shunday qilib, Ibn Sino o‘z davrining eng o‘qimishli, bilim doirasi keng kishilaridan biriga aylanadi.

Buxoro kutubxonasi haqida Ibn Sino shunday yozadi: “Men ko‘p xonalardan iborat kutubxonaga kirdim. Har bir xonada kitoblar solingan sandiqlar turardi, ulardagi kitoblar esa, ustma-ust taxlab qo‘yilgan edi... Har bir xonada fanning ma’lum sohasiga oid kitoblar saqlanar edi. U yerda shunday kitoblarni ko‘rdimki, ko‘pchilik hatto ularning nomlarini ham eshitmagan bo‘lsa kerak. O‘zim ham bundan oldin ularni ko‘rmagan edim, keyin ham uchratmadim”.

Ibn Sino kutubxonadan chiqmasdi. Amirning kasalligi xuruj qilib, u Ibn Sinoni chaqir-tirgandagina, kitob o‘qishdan biroz vaqtga bosh ko‘tarardi.

Shunday qilib, bu yerdagi nodir kitoblarni qunt bilan o‘qish natijasida Ibn Sinoning bilimi yanada kengaydi va chuqu rlashdi. Olimning yozishicha, 18 yoshga yetganda u tabobat ilmi bilan bir qatorda o‘z zamonasida ma’lum bo‘lgan barcha boshqa fanlarni ham mukammal o‘zlashtirib olgan edi.

Абу Али ибн Сино

Buxoro hokimi saroyidagi faoliyati

997-yilda Buxoro hokimi Nuh ibn Mansur vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Mansur II ibn Nuh o'tiradi. U Ibn Sino bilan do'st edi. Manbalarda keltirilishicha, u Ibn Sinoni saroydagi vazifalardan biriga tayinlagan. Shunday qilib, Ibn Sino saroy tabibi vazifasidan tashqari, u yerda davlat xizmatchisi vazifasini ham bajargan. Lekin ko'p o'tmay Mansur II ibn Nuh o'ldirilib, uning o'rnini ukasi Abdulmalik ibn Nuh egallaydi. U olim bilan unchalik yaqin munosabatda bo'lmaydi. Shuning uchun Ibn Sino saroy xizmatidan ketib, o'z ilmiy-ijodiy ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Abu Ali ibn Sinoning Buxorodagi tinch, ijodiy hayoti uzoq davom etmaydi. Qoraxoniylar 999-yili Buxoroni zabit etib, somoniylar davlatini ag'darganidan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og'ir damlar boshlandi. Alloma 21 yoshga yetganda, 1002-yili uning otasi vafot etadi. Buning natijasida Ibn Sino moddiy jihatdan ayanchli ahvolga tushib qoladi. Chunki unga moddiy va ma'naviy jihatdan yordam beradigan boshqa yaqin kishisi yo'q edi. Buning ustiga mamlakatda katta siyosiy o'zgarishlar yuz berib, Ibn Sinoning tinch ijodiy hayoti uchun sharoit yo'qoladi.

Xorazmdagi Ma'mun akademiyasidagi faoliyati

Buxoroda vaziyat keskinlashib, taxt uchun kurash 1005-yilgacha davom etadi. Ibn Sino 1005-yilda o'z yurtini tark etib, Xorazm davlatining poytaxti Urganch shahriga keladi. Bu davrda Xorazm qoraxoniylar hujumidan birmuncha tinch bo'lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan o'lka edi. Xorazm shohlari Ali ibn Ma'mun (997-1007) va Ma'mun ibn Ma'mun (1007-1017) ilm-fanga e'tiborli hukmdorlar bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergen edilar. Shu bois Xorazmnning poytaxti Gurganj(Urganch)da o'z zamonasining ko'pgina taniqli olimlari to'plandi. Yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq (1034-yili vafot etgan), atoqli tabib va faylasuflar Abu Sahl Masihiy (1010-yili vafot etgan), Abulxayr Hammor (942-1030) va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shular jumlasidandir.

Xorazmda Ibn Sinoni yaxshi kutib olishadi. U saroyda xizmat qiluvchi olimlar qatoriga kiritiladi va "Akademiya"ga qabul qilinadi. Ibn Sinoga boshqa olimlar qatori katta maosh tayinlanadi. Abu Ali ibn Sino o'z tarjimai holida Xorazmda juda yaxshi qabul qilinganligini eslab, bunday deb yozgan edi:

"Zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib, Gurganj tomonga ko'chishimga to'g'ri keldi. U yerda ilmni sevuvchi Abul-Husayn as-Saxliy vazir edi. U yerning amiri huzu riga bordim. Uning ismi Ali ibn Ma'mun edi. Men u paytda so'fiylar ridosini kiyib olgan edim. Menga yetarli miqdorda oylik tayin qilishdi".

Abu Ali ibn Sino Xorazmg'a kelganida u yerda Abu Rayhon Beruniy yo'q edi. Bu vaqtida Beruniy bir sabab bilan Xorazmdan ketib qolgan va Eronning Ray shahrida yashayotgan edi.

Ali ibn Ma'munning o'zi chuqur ilmli, odil shoh edi. U ilm ahlini juda qadrlardi. Shuning uchun u Beruniyga katta hurmat bildirib, unga xat yozadi va Beruniyni o'z saroyiga taklif etadi. Shu xatga asosan Beruniy 1005-yili yana Xorazmg'a qaytadi va podshoh saroyiga xizmatga kiradi. Ali ibn Ma'mun o'z saroyidagi olimlarga boshliq qilib Beruniyni tayinlaydi. Shu sabab bilan Beruniy "Akademiya"ga rahbar bo'lib qoladi.

Shunday qilib, Ibn Sino bilan Beruniy bir-birlari bilan 1005-yili Gurganjda uchrashadilar. Ular bundan ilgari bir-birlari bilan faqat xat orqali tanishgan edilar. Ali ibn Ma'mun saroyida Ibn Sinodan tashqari tabiblardan yana Abul Xayr Hammor va Abu Sahl Masihiylar ham yashardilar. Ibn Sino ko'pincha Abu Sahl Masihiy bilan ishlar edi. Ba'zi ma'lumotlarga

Abu Ali ibn Sino

ko'ra, ular birgalikda bir necha murakkabjarrohlik amaliyotlarini amalga oshirganlar.

Ibn Sino Xorazmda asosan matematika va astronomiya bilan shug'ullangan. Bu sohada Ibn Iroq va Beruniy bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino Abu Sahl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oladi.

Abu Ali ibn Sino Xorazmda 9-10 yilcha yashadi. So'ng qo'shni davlat hukmdori Sulton Mahmud Xorazmni bosib olish xavfi bo'lganligidan unga xizmat qilishni istamay bu yerdan ham ketishga majbur bo'ldi.

Xorazmni tark etib, Jurjonga yo'l olishi

Ibn Sino 1010-1011-yillarda Masihiy bilan birgalikda yashirinchha Xorazmni tark etadi. Shu vaqtidan olimning sargardonlik yillari boshlanib, umrining oxirigacha vatandan uzoqda hayot kechirishga majbur bo'ladi.

Masihiy bilan Ibn Sino Jurjonga — Masihiyning vataniga yo'l oladilar. Lekin yo'ldagi qiyinchiliklar va suvsizlik tufayli Masihiy betob bo'lib, vafot etadi. Natijada Ibn Sino azob-uqubatlar chekib, avval Niso, so'ng Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlarida qisqa muddat turganidan keyin, nihoyat Kaspiy dengizining

Абӯ Али ибн Сино

janubi-sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keladi. Ibn Sino Jurjonda 1012-1014-yillar yashaydi. Bu yerda u o'zining bo'lg'usi shogirdi Abu Ubayd Juzjoniy bilan tanishadi. Ibn Sino umrining oxirigacha Juzjoniy bilan sodiq do'st bo'lib qoladi. Abu Ubayd Juzjoniy Ibn Sino bilan uning so'nggi damigacha, 25 yil davomida birga bo'ladi. Ibn Sinoning tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pgina asarlarining yozilishi va tartibga tushishida hamda asarlarining keyingi avlodga yetib kelishida Juzjoniyning xizmati katta.

Jurjonda yashagan vaqtida Ibn Sino ilmiy ijod bilan shug'ullanadi, ham tabib sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda u shogirdining iltimosiga ko'ra, mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir necha risola yozadi va eng muhimi, "Tib qonunlari"ning dastlabki qismlarini tasnif qiladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ibn Sino Jurjonda quyidagi asarlarini yozgan: "O'rtacha qisqa mantiq", "Tib qonunlari"ning ayrim boblarini, "Almajastiyning qisqartirmasi" va bir qancha kichik risolalar. Alloma hammasi bo'lib Jurjonda 21 yirik va 2 kichik kitob yozib tugatgan.

Jurjonnii tark etib, Rayga ko'chishi

1014-yili Ibn Sino Jurjonnii tark etib, Rayga ko'chdi. Ibn Sino Rayga kelgan vaqtida bu yerda buvayhiylardan bo'lmish Majduddavla Abu Tolib Rustam (997-1029) va uning onasi Sayyida Xotun hukmronlik qilar ediilar. Ibn Sinoning qo'lida Sayyida nomiga yozilgan noma (maktub) bor edi. Nomani Abu Rayhon Beruniy yozib bergen bo'lishi kerak. Ma'lumki, Beruniy bir vaqt Rayda yashagan edi. Binobarin, Ray hukmdori Sayyida bilan Beruniyning munosabatlari yaxshi bo'lgan bo'lishi kerak. Shuning uchun Beruniy bu ayloga xat yozishga jur'at etgan. Xatda Ibn Sinoga yetarli darajada sharoit yaratib berish iltimos qilingan edi.

Sayyida Ibn Sinoni hurmat bilan kutib oldi va uning uchun zarur sharoit yaratib berdi. Sayyidaning o'g'li Majduddavla qandaydir ruhiy kasallikka duchor bo'lgan edi. Ibn Sino uni muvaffaqiyatli davoleydi. Bundan ko'p xursand bo'lgan Sayyida Ibn Sinoga nisbatan yana ham hurmat bilan qaray boshlaydi. Ibn Sino Rayda ham o'z ijodiy ishlarini davom ettirib, bir necha asar yozadi.

Ammo Sulton Mahmud Ibn Sinoni ta'qib etishni to'xtatmaydi. Ibn Sinoning Raydaligini bilib, Sayyidadan uni G'aznaga yuborishini talab qiladi. Aks holda Rayga qarshi urush ochishini bildiradi. Ammo zo'r aql-idrokli va tadbirkor Sayyida urushning oldini oladi.

Rivoyatlarga ko'ra, Sayyida Sulton Mahmudga quyidagi mazmunda xat yozgan: "Agar urush natijasida siz meni yengsangiz, odamlar Sulton Mahmud faqat bir ojiza ayolnigina yengdi, deydilar xolos. Agar men yengsam, siz uchun juda katta nomus bo'ladi". Tarixchilar bu xatning matnini Ibn Sino yozgan, deydilar. Shunday qilib Sulton Mahmud Rayga harbiy yurishni to'xtatadi. Lekin Ibn Sino Raydan chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Rayni tark etib, Hamadonga kelishi

Ibn Sino Rayni tark etib, nisbatan kuchliroq bo'lgan Hamadonga Majduddavlaning akasi Shamsuddavla (997-1021) huzuriga keladi. U yerda Shamsuddavlani sanchiq kasalidan davolaganidan keyin olimni saroyga taklif qiladilar. U avval saroy tabibi bo'lib ishlaydi, so'ng vazirlik mansabiga ko'tariladi. Davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay ilmiy ishlarni ham davom ettiradi va qator asarlar yozadi. "Tib qonun-

Abu Ali ibn Sino

lari"ning 1-kitobini tugatgan. Bundan tashqari, mashhur falsafiy qomusiy asari "Kitobash-shifo"ni ham shu yerda yozishga kirishadi. Hamadonda Ibn Sino o'z shogirdi Juzjoniy bilan birgalikda bir bemorni operatsiya qilib, uning qovug'idan toshni olib tashlaydi.

Shamsuddavla vafot etgandan so'ng taxtga o'tirgan uning o'g'li Samouddavla Ibn Sinoga unchalik hurmat bilan qaramaydi. Shu sababli u saroydan ketadi. Juzjoniying yozishicha, Abu G'olib al-Attor ismli kishining uyiga ko'chib borib, o'sha joyda yashay boshlaydi. Bu yerda Ibn Sino o'z ilmiy-ijodiy ishlariga yana berilib ketadi. Xususan "Kitob ash-shifo" asarining "Tabiat" va "Ilohiyot" haqidagi boblarini yozib tugatib, "Mantiq" qismini yozishga kirishadi. Alloma "Tib qonunlari" asarining qolgan qismini ham Hamadonda yozib bitiradi.

Ammo, Ibn Sino uchun Hamadonda xavfli vaziyat vujudga keladi. U vazirligida amalga oshirgan tadbirlaridan norozi bo'lgan saroy amaldorlari Ibn Sinodan o'ch olish uchun unga nisbatan dushmanlik qila boshladilar. Bunday sharoitdan qutulish maqsadida Ibn Sino qo'shni Isfahon viloyati amiri Alouddavlaga xat yozib, undan o'zini saroyga qabul qilishini so'raydi. Biroq xat qandaydir yo'l bilan Samouddavlarning

vazirlaridan biri Toji-l-mulk qo'liga tushadi. U xatni Samouddavлага yetkazadi. Ibn Sino ni tutib olib, Farajon qal'asiga qamab qo'yadilar.

Ibn Sino qamoqda to'rt oy chamasi yotadi. Ammo u tushkunlikka tushmaydi. U qamoqda ham o'z ijodiy faoliyatini davom ettiradi. Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino bu yerda tibga oid o'zining mashhur "Ichki sanchiqlar" nomli asarini yozgan. Bundan tashqari, u shu yerda ikkita falsafiy asar "Tirik o'g'li Uyg'oq" va "To'g'ri yo'l haqida" kitoblarini yozdi.

Shu vaqtida Isfahon amiri Alouddavla Hamadonni bosib olib, bir qancha vaqt uni ishg'ol qilib turadi. Buning natijasida Ibn Sino qamoqdan qutuladi.

Hamadondan Isfahonga o'tishi

Ibn Sino qamoqdan chiqqan bo'lsa-da, baribir uning Hamadonda yashashi xavfli edi. Shu sababli, u yashirincha Isfahonga jo'naydi. Isfahon amiri Alouddavla Ibn Sino ni yaxshi qabul qiladi. Alloma uchun bu yerda juda yaxshi sharoit yaratib beradi.

Ibn Sino umrining qolgan 14 yilini Isfahonda o'tkazadi. Bu yerda ham u tinimsiz ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lib, bir qancha asarlar yaratadi. Ular orasida tib, falsafa, aniq fanlar, tilshunoslik kabi fanlarga oid kitoblar bor. "Kitob ash-shifo"ning

Abu Ali ibn Sino

qismlari, fors tilidagi “Donishnoma” va 20 jildli “Insof-adolat kitobi” shular jumlasidandir.

Ibn Sino Isfahondaligida shaharga G'azna hukmdori Sulton Mas'ud(Sulton Mahmudning o'g'li)ning askarlari bostirib kirib, aholini talon-taroj qiladilar. Bu to'polonda Ibn Sinoning ko'p asarlari va qo'lyozmalari yo'q bo'lib ketadi. Ibn Sino yo'qolgan asarlarini yana yoddan tiklaydi.

Ibn Sinoning vafoti

Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino, garchi, jismonan juda baquvvat bo'lsa-da, biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kecha-kunduz tinim bilmay ishlash va bir necha bor ta'qib qilinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga jiddiy ta'sir etdi. U qulanj (kolit) kasalligiga chalinadi. Alouddavlaning Hamadonga yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lida dardi qo'zg'ab olimning tamomila madori quriydi va oqibatda u shu darddan 1037-yili Hamadonda 57 (hijriy 58) yoshida vafot etadi. Alloma Hamadonda dafn etiladi. Uning qabri ustiga 1952-yili maqbara

Абу Али ибн Сино

qurilgan (me'mori X. Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag'ishlangan muzey xonalarini ham o'z ichiga olgan.¹

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino o'zining qisqa umri davomida jahon fani va madaniyatida o'chmas iz qoldirdi.

Allomaning ilmiy merosi

Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Alloma asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilarini fors tilida yozgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha ularning 242 tasi yetib kelgan², shulardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi

¹ "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. B. 54.

² Yahyo Mahdaviy. "Fihrist-i nusxah-yi Ibn Sino. Tehron, 1333-h / 1954-m. Abu Ali ibn Sino. "Tib qonunlari". (Uch jildlik saylanma). 1-j. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 1994. B.5.

musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.¹ Allomaning asarlari keyingi avlodlarga boy meros bo'lib qoldi.

Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin. U falsafa va tibbiyotga ko'proq qiziqqan. Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi, deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinci guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rghanuvchi barcha fanlarni kiritadi.

¹ Abu Ali ibn Sino. "Tib qonunlari". 1-j. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 1994. B.5.

Tibbiyotga oid asarlari

Ibn Sinoning tibbiyot faniga oid umumiy nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan eng yirik asari "Tib qonunlari" bo'lib, u 5 katta kitobdan iborat bo'lib (1956-62-yillarda Toshkentda rus va o'zbek tillarida to'la nashr etilgan), ularning har biri ma'lum sohani izchil va har tomonlama yoritib beradi.

1-kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti va vazifalari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari va sog'likni saqlash yo'llari, kishi anatomiyasi haqida mazmundor aniq ocherk va sog'likni qanday saqlash kerakligi haqidagi ta'limot bayon etiladi. Turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi hamda tarqalishida ifloslangan suv va havoning roli katta ekanini uqtirib, suvni qaynatib yoki filtrlab iste'mol qilishni tavsiya etadi.

2-kitobida 800ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste'mol qilish usullari bayon etilgan. Ibn Sino simob va uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi bo'lib tavsiya etadi, sharobni quvvat kirituvchi va jarohatlarni tozalovchi dori sifatida ishlatadi.

3-kitobida ayrim organlarning (hatto soch, tirnoqlarning) kasalliklari va ularni davolash usullari bayon etiladi. Bu kitobda bosh miya, asab, ko'z,

Abu Ali ibn Sino

qulqoq, burun, tomoq, qorin, tish, yurak, me'da, jigar, buyrak kasalliklari batafsil tahlil qilinadi.

4-kitobi organizmning umumiy kasalliklariga bag'ishlangan, unda isitmalar, o'smalar, ularning sababi, jarrohlik yo'li bilan davolanadigan kasalliklar va ularni davolash usullari, har xil dorilardan zaharlanish va bunda ko'rildigani choralar to'g'risida ma'lumot beriladi.

5-kitobida murakkab dorilarning organizmga ta'siri, ularni tayyorlash va iste'mol qilish usullari bayon qilingan. Bu kitob dorishunsolik ilmiga – farmakologiyaga bag'ishlangan.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid muhim asarlaridan ikkinchisi nazm (she'riy usul) bilan yozilgan "Tibbiy urjuza"¹ kitobidir. Bu kitob 1326 bayt(2652 misra)dan iborat katta she'riy asardir. Kitob tib ilmini o'rjanuvchi talabalarga darslik sifatida yozilgan.

Bu asar asosan tibbiyotning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Lekin, unda amaliy tibbiyot haqida ham yetarli ma'lumot berilgan. "Tibbiy urjuza" o'z mazmuni va ahamiyati jihatidan "Qonun"dan uncha qolishmaydi. "Qonun"da bayon etilgan mavzu va masalalar "Urjuza"da qisqa va ixcham qilib keltirilgan.

"Tibbiy urjuza" ikki bo'limdan iborat.

¹ Urjuza – she'rda aruz vaznining bir turi.

Абу Али ибн Сино

Birinchi bo'limda tibbiyotning umumiy nazariy masalalari yoritilgan. Unda, xususan, tibbiyotning tafsiri, uning qismlari, unsurlar, a'zolar, mijozlar, xiltlar, ruh (jon), quvvatlar haqida ma'lumotlar beriladi. So'ng inson organizmiga havo, ovqatlar, ichimliklar, uyqu va uyqusizlik, harakat va harakatsizlik, nafsoniy kayfiyatlarning ta'siri ko'rsatilgan. Shundan keyin ayrim a'zolar kasalliklari, ularning belgilari, tomir urishini tekshirish va shunga asosan kasallikni aniqlash usullari bayon etilgan. Bulardan tashqari siyidik, axlat, balg'am, teri va terni tekshirib, kasallikka dalil topish usullari keltirilgan. Qon, safro, savdo va xiltning g'alaba qilishi(ustun kelishi)dagi belgilari ko'rsatilgan.

Ikkinci bo'lim tibbiyot amaliyotiga bag'ishlangan. Bu bo'lim o'z navbatida to'rt qismga bo'lingan.

Birinchi qismda kishi sog'lig'ini saqlash tadbiri bayon etilgan.

Ikkinci qismda bemorlarga beriladigan dori va ovqatlar haqida so'z yuritiladi.

Uchinchi qismda qo'l bilan ayalga oshiriladigan muolaja usullari (jarrohlik) bayon ctilgan.

To'ritinchi qismda chiqqan-singanlarni davolash ko'rsatilgan. Masalan, chiqqan bo'g'inlarni (suyakni) joyiga solish.

Allomaning “Tibbiy urjuza” asari 1972-yilda o’zbek tiliga ham tarjima qilinib bosib chiqarilgan.

Ibn Sinoning bu asosiy “Tibbiy urjuza” kitobidan tashqari, tibbiyotga oid yana bir necha she’riy “Urjuza” kitoblari bo’lgan. Ular tibbiyotning ayrim maxsus masalalariga bag’ishlangan bo’lib, bizga quyidagilari ma’lum:

1. “Tana tuzilishiga oid urjuza” kitobi. Bu kitob 98 baytdan iborat bo’lib, unchalik katta emas.
 2. “Jinsiy mayllik haqida urjuza”.
 3. “Sog’lijni saqlash haqida tibbiy urjuza”. Bu 15 bayt(30 misra)dan iborat kichik she’riy asardir.
 4. “Yilning to’rt fasli haqida tibbiy urjuza”. Bu kitob ham unchalik katta emas. Hammasi bo’lib 121 bayt(242 misra)dan iborat.
 5. “Sinab ko’rilgan dori-darmonlar haqida tibbiy urjuza”. Bu asarda Ibn Sino o’zi uzoq vaqt kasallarda sinab ko’rgan har xil dori-darmonlar haqida so’z yuritgan.
 6. “Gippokratning vasiyatlari haqida urjuza”. Bu asar 93 baytdan iborat.
 7. “Tibbiy nasihatlar haqida urjuza”. Bu asar 72 baytdan iborat.
- Ibn Sinoning tibga oid muhim asarlaridan yana biri “Tibbiy qoidalarda uchraydigan xatolarni

“tuzatish” kitobidir. Bu kitob “Tadbirda yo‘l qo‘yilgan har xil xatoliklarga qarshi chora ko‘rish yo‘li bilan tanaga yetkazilgan turli zararlarni yo‘qotish”, deb ham ataladi.

Ibn Sino ta‘kidlab o‘tganidek, tibbiyotning asosiy vazifasi kasallikning oldini olish, ya‘ni uning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Bu masalaga alloma o‘zining bir necha asarini bag‘ishlagan. Shulardan biri “Salomatlikni saqlash haqida risola”dir. Bu kitobcha 13 bobdan iborat. Asarda so‘z asosan shaxsiy gigiyena haqida boradi.

Ibn Sinoning boshqa asarlari tibbiyotning ayrim xususiy masalalariga bag‘ishlangan katta-kichik kitoblardan iboratdir. Ular orasida 1-2 sahifalilari ham bor.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” va “Urjuza fi-t-tib” (“Tibbiy urjuza”) kabi tibbiy asari bilan bir qatorda tibbiyotning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan turli hajmdagi “Al-Adviyati-l-qalbiya” (“Yurak dorilar”), “Kitobal-kulonj” (“Kulanj haqidagi kitob”), “Maqola fi-n-nabz” (“Tomir urishi haqida maqola”), “Risola fi-l-boh” (“Shahvoniy quvvat haqida risola”), “Risola fi-l-fasd” (“Qon olish haqida risola”) kabi risolalari ham bor.

Falsafiy asari. Olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari "Kitob ash-shifo"dir. U 4 qismdan iborat:

1. Mantiq – 9 bo'lakka bo'lingan:

1. "Al-madhal" ("Mantiqqa kirish").
2. "Al-maqulot" ("Kategoriyalar").
3. "Al-iborat" ("Interpretatsiya»).
4. "Al-qiyos" ("Sillogizm").
5. "Al-burhon" ("Isbot", "Dalil").
6. "Al-jadal" ("Tortishuv", "Dialek-tika").
7. "As-safsata" ("Sofistika").
8. "Al-xitoba" ("Ritorika").
9. "Ash-she'r" ("Poetika"), (She'r san'ati).

2. Tibbiyat:

(Bu yerda minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo'limlarda gapiriladi).

3. Riyoziyot – 4 fanga bo'lingan:

1. "Hisob" ("Arifmetika").
2. "Handasa" ("Geometriya").
3. "Astronomiya" (Falakiyot).
4. "Musiqa".

4. Metafizika yoki ilohiyot.

Bu asarlarning ayrim qismlari lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr qilingan.

Abu Ali ibn Sinoning bulardan tashqari turli sohaga oid "Al-Qonun", "Hayy ibn Yaqzon", "Risolat at-tayr", "Risolat fi-l-ishq" ("Ishq haqida risola"), "Risolat fi mohiyati-s-salot" ("Namozning mohiyati haqida risola"), "Kitob fi ma'no ziyyarat" ("Ziyyarat qilishning ma'nosi haqida"), "Risolat fi daf al-g'am mina-l-mavt" ("O'limdan keladigan g'amni daf qilish haqida risola"), "Risolat al-qadr", "An-Najot", "Ash-Shifo", "Donishnama", "Kitob al-ishorat" va "Attanbihot" kabi ko'plab asarlari ham bor.

Allomaning "Hayy ibn Yaqzon" asari kishilarining did-farosatini o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'lim-tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishora qiladi: "Hayy ibn Yaqzon" ("Tirik o'g'li Uyg'oq"). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini Ibn Sinoning o'zi ham ta'kidlaydi. Yuqorida aytganimizdek, mazkur asarni Ibn Sino 1023-yilda Hamadonga yaqin bo'lgan Farajon qal'asi qamoqxonasida yozgan.

Ibn Sino axloqqa oid asarlarini "Amaliy hikmat" ("Donishmandlik amaliyoti") deb ataydi. Olimning fikricha, axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakati me'yorlari va qoidalarini o'rganadi.

Ibn Sino axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi: "Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir...".

Ibn Sinoning "Tadbiri manzil" risolasi ham "Kitob ash-shifo" asarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Asar arab tilidan forsiyga eronlik olim Muhammad Najmiy Zanjoniy tomonidan tarjima qilinib, 1939-yili Tehronda chop etilgan. U tarjima asar ikki qismdan iborat bo'lib, ikkinchi qismi tarjimonning izohlari va bat afsil sharhlaridan tashkil topgan.

Ibn Sino o'z davridagi tabiiy fanlarning rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari "Kitob ash-shifo" ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan. Allomaning ba'zi geologiya jarayonlariga oid mulohazalari hozirgi ilmiy nazariyalarga juda yaqindir. U vulqonlar va zilzilalar natijasida tog'larning paydo

Абу Али ибн Сино

bo'lishi haqidagi o'z fikrlarini aytadi.

Ibn Sino mineralogiya (ma'danshunoslik) sohasida ham salmoqti ishlar qilgan. U minerallarning original klassifikatsiyasini taklif etdi. Unga ko'ra barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltingugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi.

Ibn Sino tabiiy fanlar qatori kimyo, botanika, astronomiya, matematika, she'riyat va musiqa bobida ham ilmiy yo'nalishlarini davom ettirgan va ularga oid asarlar ham yozgan.

Buyuk qomusiy olim Ibn Sino musiqa bobida Forobiyning ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Uning musiqa haqidagi "Javome' ilm-u-l-musiqiy" ("Musiqa ilmiga oid to'plam") asari 6 bobdan iborat bo'lib, bunda tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish hissining paydo bo'lishi kabi masalalarga to'xtaladi. Ibn Sino musiqa ovozlarining kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini va o'z davri musiqasining barcha muammolarini bayon etgan.

Ibn Sinoning tibbiy fikrlari

Abu Ali ibn Sino o‘z davridagi fanlarning hammasini mukammal o‘zlashtirib, tabiiyki, tibbiyot faniga alohida ahamiyat bergen va o‘z kasbini asosan tabiblik deb bilgan. Aynan shu tabiblik sohasida uning talanti va qobiliyati, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ldi.

Ibn Sino fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyot o‘zaro bog‘liq bo‘lishi va bir-biriga asoslanmog‘i zarur, aks holda u rivoj topmaydi va o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Tib ilmi avvalo ikki qismga – nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi.

Ibn Sino tabobat ilmining nazariyasi va amaliyoti sohasida juda chuqur bilimga ega edi. O‘zining nihoyatda o‘tkir zehni va chuqur bilimi tufayli Ibn Sino tabobat ilmi sohasida o‘z davridan ancha ilgarilab ketdi. U tabobatning maqsad va vazifasini boshqalardan ko‘ra chuqurroq va kengroq tushunardi. Chunonchi, Ibn Sino o‘sha zamondayoq tibbiyotning asosiy vazifasi kishilarning salomatligini saqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir, deb bilgan. Bu fikr hozirgi zamon tibbiyotining asosiy tushunchasiga tamomila mos keladi.

Абу Али ибн Сино

Abu Ali ibn Sino tabib sifatida ulug' gumanist edi. U inson manfaatini doimo hamma narsadan yuqori qo'yar va o'z shogirdlaridan ham shuni talab qilardi. Bu uning tibbiyotga bergan ta'rifidan ma'lum. Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid mashhur nazmiy asari "Tibbiy Urjuza"da bunday deydi: "Tabobat – bu salomatlikni saqlash va kasalliklarni davolashdan iborat". Bu fikr olimning shoh asari "Kitobu-l-qonun fit-tib"da ayniqsa yaqqol o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino o'zining bu shoh asarini shunday so'zlar bilan boshlaydi: "Tib shunday ilmki, u kishilarning salomatligini saqlash va kasalliklarni davolash maqsadida odam tanasini sog' va kasallik chog'ida o'rganadi".

Bundan ko'rinib turibdiki, Ibn Sino kishi salomatligini, ya'ni profilaktikani birinchi o'ringa qo'ygan. Olimning o'z faoliyati umr bo'yi shu maqsadga xizmat qilishga bag'ishlangan edi. Uning butun hayoti tibbiyotning shu asosiy vazifasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

"Qonun"da tibbiyot fanining vazifasiga bag'ishlangan maxsus qism bor. Ibn Sino yozadi: "Har bir hodisaning mohiyati uning sababini aniqlash yo'li bilan ochiladi. Shuning uchun tibda sog'lik va kasallikning sababini bilish kerak.

Abu Ali ibn Sino

Sog'lik, kasallik va ularning sabablarini bilish kerak. Sog'lik, kasallik va ularning sabablari goho ochiq (aniq), goho esa yopiq (noaniq) bo'lishi mumkin. Bu sabablar o'z ko'rinishlariga qarab faqat o'qish bilangina emas, balki fikr qilish yo'li bilan tushuniladi. Shuningdek, tabobatda sog' vaqtida ham, kasallikda ham sodir bo'ladigan hodisalarни bilish kerak". Bundan kelib chiqadiki, tabib o'z faoliyatida, dastlab sog'likni yo'qotishga olib kelgan sababni aniqlab olishi zarur. Ibn Sino sog'lik to'g'risida bunday deydi: "Sog'lik shunday holatki, bunda organlar o'z vazifasini to'la bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi". Allomaning bundan ming yil muqaddam aytgan bu fikrlari yuksak darajada rivojlangan hozirgi zamon tibbiyoti va uning profilaktik printsiplariga tamomila mos keladi.

Ibn Sino amaliy tabobatni ikkiga bo'ladi. Bulardan biri, sog'lom tana rejimi, ya'ni salomatlikni saqlashga qaratilgan tadbirlar bo'lsa, ikkinchisi nosog' (kasal) tana rejimidir. Bunda organizmni normal holatga qaytarish ko'zda tutiladi. Buni alloma davolash bilimi deb ataydi.

Ibn Sino ta'limotining davomchilari

Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Hayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar.

Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga oldilar.

Ayni vaqtida ham Ibn Sino asarlari dunyoning turli kutubxonalarida, faylasuflar, shifokorlar, matematik va tilshunoslarning kitob javonlarida avaylab saqlanmoqda.

Butun ilg'or insoniyat, xususan o'zbek xalqi, ilm-madaniyat ahli aql va adolat tantanasi uchun kurashgan, fan, haqiqat yo'lida butun hayotini ilm-fanga, madaniyat va ma'rifikatga bag'ishlagan ajoyib iste'dod egasi Ibn Sino bilan g'ururlanadi.

Ibn Sinoga berilgan tavsif

U o'z ilmi, merosi bilan o'rta asr Sharqining ilmiy madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qilgan. Butun insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur ensiklopedist sifatida tan olindi.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini e'tiborga olib, Jordano Bruno Ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, tabib (vrach) Golenlar bilan teng qatorga qo'ysa, A. Dante o'zining «Ilohiy komediya»sida olimni Ptolomey, Evklid, Gippokratlarga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L. Feyerbax olimni "Mashhur tabib va faylasuf"dir desa, Hindistonning buyuk davlat arbobi J. Neru o'zining "Hindistonning ochilishi" degan asarida O'rta Osiyo olimlarini tilga olar ekan, Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: "Ulardan eng mashhuri tabiblar (vrachlar) podshohi degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino – (Avitsenna)dir", – deb, hurmat bilan tilga oladi.

Demak, Ibn Sinoning shaxsiy faoliyati, dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari,

Абу Али ибн Сино

ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari va tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmatlari dunyo taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Zamondoshlari Ibn Sinoni "Shayx ur-rais" ("Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i"); "Sharaf al-mulk" ("O'lka, mamlakatning obro'si, sharafi"), "Hujjat al-haqq" ("Rostlikka dalil"); "Hakim al-vazir" ("Donishinand, tadbirkor vazir") deb ataganlar.

Ibn Sinoning bolaligidagi bir voqeа

Uzuk voqeasi: Abu Ali ibn Sinoning onasi uni chaqaloqligida cho'miltirayotganida qimmatbaho uzugini yo'qotib qo'ygan ekan. U uzugini ko'p qidiribdi. Lekin hech qaerdan topa olmabdi. Keyin uni kanizak olgan, deb gumon qilib, bechora kanizakni rosa kaltaklashibdi. Kanizakni urishayotganda Abu Ali yig'lay boshlabdi, kaltaklashdan to'xtashsa, chaqaloq ham yig'idan to'xtabdi. Hamma bundan ajablanib, uzukni yo'qoldiga chiqarishibdi.

Ibn Sino tilga kirganida, birinchi aytgan gapi shu bo'libdi: Sizlar o'sha vaqtda kanizakni nohaq urg'an edinglar. Onam meni cho'miltirayotganda, uzugi tog'oraga tushib ketgan edi. U tog'orani ag'darganida uzuk ham suv bilan birga kir o'raga

tushib ketgan. Mening tilim chiqmaganidan, sizlarga aytolmagan edim. Kanizakni urganinglarda yig'lab, to'xtatganlar ingda yig'idan to'xtashimning sababi shu edi.

Shundan keyin o'rani kavlashgan ekan, uzuk topilibdi. Bu voqeani eshitganu bilganlar Ibn Sino zehniga qoyil qolishgan ekan.

Bemorlarni davolashdagi qo'llagan usullari haqidagi rivoyatlar

"Men ho'kizman": Buxorolik bir kishi kasal bo'lib, "Men ho'kizman, meni so'yinglar", deydigan bo'lib qolibdi.

Kasalning qarindosh-u rug'lari buni Abu Ali ibn Sinoga aytishibdi. Abu Ali kasalning oldiga qassob bo'lib kelibdi va "Qani so'yadigan ho'kizinglar!" – deb baqiribdi. Bemor uning oldiga chopib borib, "So'yiladigan ho'kiz menman", debdi. Abu Ali darrov bemorning qo'l-oyog'ini bog'latibdi, so'ng qo'lida pichoqni o'ynatib, bemorning biqinidan ushlab ko'ribdi-da:

– Ho'kizimiz semiz demabmidilaring, bu juda oriq-ku, buni men hozir so'ymayman, sal semirsin, keyin so'yaman, – debdi. Bemor bu gapni eshitib: "Qani, menga ovqat beringlar, men semiray", deb

ovqat talab qilaveribdi.

Abu Ali ibn Sino bemorning oilasiga dori qoldirib, uni ovqatiga qo'shib, bemorga berishni uqtiribdi. Uydagilar shunday qilishibdi. Natijada bemor hademay tuzalib ketibdi. Keyinchalik Abu Ali ibn Sino bemorning uyiga kelib:

- Semirgan ho'kizinglar qani, so'yib beray,
- debdi va sog'aygan bemorga ko'zi tushib:
- E, ancha semiribsan-ku, endi so'ysa bo'ladi,
- debdi.

Bemor tabibning gapidan juda taajjublanibdi va:

— Meni so'yadiganning boshi o'nta, tegib ko'rchi, menga, deya do'q uribdi.

Yig'ilgan qarindosh-u rug'larning hammasi avvalgi voqeani eslab xoxolab kulib yuborishibdi.

Ishq dardiga chalingan qizni davolashi

Rivoyat qilishlaricha, bir shohning qizi betob bo'lib qoladi. Tabiblar uni davolay olmadilar, shunda Ibn Sinoga murojaat qildilar. Ibn Sino uni ko'rib: "Uning dardi – ishqdir", — dedi. Saroy kanizaklari uni inkor qildilar. Ibn Sino: "Agar xohlasalaringiz, men sizlarga uning kimni sevishini ham aytib beraman. Bu qizga yaqin bo'lgan yigitlarning

Abu Ali ibn Sino

nomlarini aytinglar, men uning tomirini ushlab turaman", — dedi. Saroydagilar birma-bir atrofdagi yigitlarning nomini ayta boshladilar. Sevgilisining ismini zikr qilishganda tomirlari qattiq ura boshladи va hushidan ketdi. Ibn Sino uning dardini shu tariqa aniqladi. Saroy a'yonlari uning dardining davosi nima ekanligi haqida so'radilar. Ibn Sino: "Ishq uning butun vujudini egallab olibdi, agar shu yigitga uni tur mushga bermasalaringiz, u halok bo'ladi", — dedi.

Ibn Sino shu tariqa o'zining donoligi va ziyrakligi bilan bemorning dardini to'g'ri aniqlab, uni davolagan ekan.

Ibn Sino: "Mening bisotimda (aniq tashxis qo'yish uchun) bor narsalarning eng azizrog'i — bu bemorning to'g'ri so'zidir", deydi.

Abu Ali ibn Sino hayotining solnomasi

980 — Buxoro yaqinidagi Afshona degan joyda Abu Ali Husayn ibn Abdulloh dunyoga keldi.

985 — Ularning oilasi Afshonadan Buxoroga ko'chib o'tdi.

985-995 — Husayn ibn Abdulloh Buxorodagi Mahmud Massoh, Ismoil az-Zohidiy, Abu Abdulloh Notiliy, Al-Qumriy kabi ulug' olimlardan ta'lim oladi.

997 — Abu Ali Husayn ibn Abdulloh Buxoroning ulug' olim va tabiblaridan biri bo'lib tanildi. Buxoro amirining og'ir kasalini davolashda ishtirok etib, uning evaziga amir kutubxonasida mutolaa etmoqqa ruxsat oladi.

998 — O'zining dastlabki ilmiy asarlarini yaratdi.

999 — Qoraxoniylar Buxoroni zabit etib, somoniylar davlatini ag'darganidan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og'ir damlar boshlandi.

1002 — Abu Ali ibn Sino 21 yosha yetganda uning otasi vafot etdi.

1005 — Abu Ali ibn Sino Buxorodan Xorazm poytaxti Gurganjga kelib bu yerdagi olimlar davrasida xizmat qiladi. Asarlar yozadi. "Tib qonunlari", "Ash-shifo" asarlarining dastlabki materiallarini ham shunda yig'a boshladи. Ibn Sino shu yili Abu Rayhon al-Beruniy bilan uchrashadi.

1012-1014 — Abu Ali ibn G'azna podshohi Sulton G'aznaviy ta'qibidan qochib Abu Sahl Masihiy bilan birga Xorazmdan chiqib ketdi. Ular Eron sari jo'nadilar. Yo'lда Masihiy vafot etdi. Abu Ali ibn Sino Niso, Obivard, Shiqqon, Samanqon, Jojurli degan joylarda tentirabyurdi. So'ng Jurjonga keldi. Undan Dehistonga o'tdi.

So'ng yana Jurjonga qaytdi. Bu yerda unga Abu Ubayd al - Juzjoniy kelib uchradi. Shundan so'ng ustoz Abu Ali ibn Sino va shogird Abu Ubayd Juzjoniy hamisha birga bo'ldilar.

1014 — Abu Ali ibn Sino Ray shahriga keladi. Bu yerda tabiblik bilan shug'ullanadi, ilmiy ishlarini davom ettiradi.

1016 — Sulton Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan qochib Abu Ali Ibn Sino Raydan Kozvin orqali Hamadonga o'tadi. Bu yerda amir Shamsuddavlaning vaziri bo'lib xizmat qiladi. So'ng harbiylarning ig'vosi bilan Farajon qal'asiga hibs etiladi. Bu yerda Abu Ali ibn Sino "Alhidoya" ("Bag'ishlov"), "Hayy ibn Yaqzon" ("Uyg'oqning o'g'li Tirik"), qulanj kasali to'g'risidagi "Kitobu-l-kulanj" asarlarini yozadi. "Yurak dorilari" kitobini yoza boshladi.

1025 — Abu Ali ibn Sino Hamadondan Isfahonga o'tdi. Bu yerda umrining oxirigacha yashadi. "Tib qonunlari", "Ash-shifo" kabi shoh asarlarini tugalladi. "Kitob ul-loyi" asarini yozdi.

1037 — Abu Ali Isfahon amiri Alouddavla bilan Hamadon safarida birga bo'ldi. Shu safar davomida eski kasali qo'zg'ab qoldi va 1037-yili Hamadonda 57 (hijriy 58) yoshida vafot etadi. Abu Ali ibn Sino Hamadon shahrining g'arb

Абӯ Али ибн Сино

tomonida qo'rg'on devorining yoniga dafn etiladi.

1952 — Alloma qabri ustiga maqbara qurilgan (me'mori X. Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag'ishlangan muzey xonalarini ham o'z ichiga olgan.

Adabiyotlar:

1. Ibn Sinoning nashr etilgan asarları

1. *Ибн Сино, "Дониш-намаэ, Книга знания".
Душанбе, 1957,"*
2. *Ibn Sino, "Tib qonunlari", 1-5-kitoblar; (2-nashri), T.: 1979-1983.*
3. *Ибн Сино, "Избранные философские произведения", M.: 1980.*
4. *Ibn Sino, "Osori muntaxaba". 1-2 t.,
Dushanbe, 1980.*
5. *Ibn Sino, "Salomon va Ibsol", T.: 1980.*
6. *Ибн Сино, "Трактат по гигиене", T.: 1982.*
7. *Ibn Sino, "Tibbiy risolalar", T.: 1987.*
8. *Ibn Sino, "Tib qonunlari", (3 jildli saylanma;
Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev), T.:
1994.*
9. *Ибн Сино, "Канон врачебной науки. в10
томах. T.: 1996.*
10. *Ibn Sino, "Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o'git,
T.: 1999.*
11. *Abu Ali ibn Sino, "Zafarnoma", Tarjimon:
Nosir Muhammad, T.: "Nihol". 2009.*

2. Ibn Sino haqidagi asarlar

1. Djumayev V.K. "Ibn Sino portretti", T.:1957.
2. Джумаев В.К. "Хирургия Абу Али ибн Сины и её исторические источники", Т.: 1965.
3. Терновский В.Н., "Ибн Сина (Авиценна)", М.:1969.
4. Xayrullayev M., "Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri", T., 1980.
5. Завадоский Ю.Н., "Абу Али ибн Сина", Душанбе, 1980.
6. Болтаев М.Н., "Абу Али ибн Сина великий мыслител, учёный-энциклопедист средневекового Востока, Т.: 1980.
7. "Абу Али ибн Сино түгилган кунининг 1000 йиллигига, тўплам", Т., 1980.
8. Otabekov Y.O., Hamidullin Sh.H., "Abu Ali ibn Sinoning ilmiy asoslangan haykal obrazini yaratish", T.: 1980. Sagadeyev A. V.. "Ibn Sina (Avitsenna)", M., 1980.
9. Нуралиев Ю., "Медицина эпохи Авиценны",: Душанбе, 1981.
10. Majidov N. M., Halimov X. M., Majidova Y. N., "Abu Ali ibn Sino nevrologiyasi", T.: 2002,
11. "Buyuk allomalarımız", "Toshkent islam universiteti", T,: 2002.

“МУТАФАКИРЛАР”
илемий-оммабоп рисолалар туркуми

Йўлдошхон ИСЛАЕВ

АБУ АЛИ ИБН СИНО

Муҳаррир *Акбар ЗАМОНОВ*
Бадиий муҳаррир *Акбарали МАМАСОЛИЕВ*
Техник муҳаррир *Олмос МУХТОРОВ*
Мусаҳдиқ *Гулргуз АТҲАМОВА*
Сахифаловчи *Хусан САҒАРАЛИЕВ*

Босишга 20.08.2010 руҳсат этилди.
Бичими 60x84 1/32. Ҳажми 3 б.т. Адади 10 000.
Буюртма № 033. Баҳоси келишилган нархда.

Оригинал макет
«ТАФАККУР» нашриёти
медиа марказида тайёрланди.

Рисола «Ўзбекистон» НМИУ ҳамда «ТАФАККУР»
нашриёти босмаҳоналари ҳамкорлигига чоп этилди.

«ТАФАККУР» нашриёти.
www.tafakkur.uz
E-mail: maktub@tafakkur.uz
Телефонлар: (+99871) 271-23-42, 440-37-16, 401-36-40

Тошкент шаҳри. Чилонзор тумани,
Чилонзор кўчаси, 1-й